

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Maktab direktorlarining oyligi xodimlarinikidan kam. Shunday bo'lsa-da, ular mingan mashinani xodimlar minolmaydi. Buning sababi, xodimlar olgan oyligining yarmini ishga sarflashadi. Tibbiy ko'rik, ko'rgazmali qurol, plakat, rangli qog'oz, fayl papka, tarqatmalarga o'z hisobidan pul to'laydi. Biz birgina yillik ish rejamizni 100 000 so'mga chiqartiramiz.

4-bet

To'rt muammoli harf

Mustaqillik davrida bir necha bor lotin asosli alifbo loyihasi e'lon qilindi... Xullas, harf o'zgartirishdan boshimiz chiqmay qoldi. Zora, bu safar ko'ngildagidek alifboga ega bo'lsak... Buning uchun, albatta, shoshmasdan, har taraflama o'ylab, yetti o'lchab, bir kesib ish qilishimiz kerak.

8-9-betlar

Kitob — najot, kitob — xaloskor

Yaqinda mehmonga kelgan nabiralarmni kitob do'koniga olib bordim. Hamisha qo'g'irchoq va mashina tanlaydigan kichkintoylarim bu gal yayrab kitob tanlashdi.



11-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqib boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 29-iyun, shanba № 50 (9219)

Xalq ziyolilari gazetasi



Bog'cha — bolalarni ovutadigan maskan emas

6-bet

27-iyun — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni



Halol mehnat va so'zga mas'uliyat e'tirofi

Keyingi yillarda O'zbekiston mediamakonida axborot olish va tarqatish, so'z erkinligini ta'minlash borasida sezilarli o'zgarishlar kuzatilayotganini jahon afkor ommasi yakdil e'tirof etyapti.

Barcha yo'nalishdagi ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, internet saytlari faollashib, mamlakatni demokratlashtirish hamda fuqarolik jamiyatini mustahkamlash yo'lidagi muammo va kamchiliklarni istisnolarsiz yoritmoqda. Mana shunday dadil odimlar davlatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgani, e'tirof etilayotgani soha xodimlariga kuch-quvvat bag'ishlayapti. 27-iyun — Matbuot va ommaviy ax-

borot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan O'zbek Milliy akademik drama teatrida o'tkazilgan tantanali yig'ilishda qatnashganlar bunga yana bir karra guvoh bo'ldi.

Tadbirda davlatimiz rahbarining matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo'llagan tabrigini Prezident maslahatchisi X.Sultonov o'qib eshittirdi.

4-bet

“TV-tanlov” o'tkazilsa...

Har qanday tanlovning asosiy mezonlari shaffoflik va adolat sanaladi. Jumladan, “Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi” ko'rik-tanlovida ham eng munosib va izlanuvchan, zamonaviy fikrlaydigan pedagoglarni saralashda bu jihat alohida e'tiborga olinadi. Shu bois an'anaviy ko'rik-tanlovni o'tkazish tartiblari yil sayin takomillashmoqda. Bu yil ham ko'rik-tanlov shartlariga qator o'zgartirishlar kiritildi. Aynan adolat va shaffoflikni ta'minlash maqsadida o'qituvchilar bellashuvi Respublika ta'lim markazining hududlarga birlashtirilgan xodimlari nazoratida, onlayn videokuzatuv ostida o'tkazildi. Tanlovning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bosqichida g'olib deb topilgan 178 nafar ishtirokchi 13 ta fan bo'yicha ayni paytda yakuniy sinovga tayyorgarlik ko'rmoqda.

5-bet

Bu yil maxsus sirtqiga qabul bo'lmaydimi?

Sirtqi va maxsus sirtqi ta'lim kimlar uchun?

2018-2019-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha umumiy kvota — bakalavrlar uchun 69 200, magistrlar uchun 5 903 tani tashkil qilgan. Bu yilgi bakalavriat uchun kvotalar 80 mingdan oshiq. Biroq o'tgan yili maxsus sirtqi bo'limlarda bakalavrlar uchun kvota 11 765 ta etib belgilangan bo'lsa, bu yil kvotalar tasdiqlanganicha yo'q.

7-bet

YANGI SANOAT QUUVATLARI VA INFRATUZILMA IMKONIYATLARI XALQIMIZ FAROVONLIGIGA XIZMAT QILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28-iyun kuni Yashnobod va Qibray tumanlarida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari dastlab Toshkent mexanika zavodiga tashrif buyurdi.

Toshkentning sanoat, tranzit-logistika, infratuzilma borasidagi imkoniyatlaridan unumli foydalanib, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan ilg'or texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish va ularning eksporti kengaytirish poytaxtimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, ulkan maydon, bo'sh bino va inshootlar, zarur infratuzilmaga ega bo'lgan Toshkent mexanika zavodida xorijiy investitsiya jalb qilish va ishlab chiqarish turlarini ko'paytirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Hozirgi vaqtda zavod hududida o'ndan ziyod korxona faoliyat yuritib, ularda ikki yarim mingdan ortiq kishi mehnat qiladi. Zavod hududida tashkil etilgan texnoparkda 2019-2020-yillarda umumiy qiymati 385 million dollardan ziyod bo'lgan 16 korxonani ishga tushirish rejalashtirilmoqda.

Ushbu korxonalarda yiliga 1 million donadan ziyod kir yuvish mashinasi, 1 million oshxonaa plitasi, yana shuncha maishiy sovitkich, savdo rastalari uchun 75 ming dona sovitkich va muzlatkich, 700 mingta elektr suv isitkich, 550 mingta suv nasosi, 80 ming dona sanoat konditsioneri, 2 mingta lift va eskalator, shuningdek, alyumin va bimetal radiadorlar, eshik-rom furnituralari, sendvich-panellar, linolium va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish mo'ljallangan. 9 mingga yaqin ish o'rni yaratish, yiliga qariyb 185 million dollarlik tovarni eksport qilish ko'zda tutilgan.

Prezidentimiz korxonalar barqaror ishlashi uchun doimiy xaridor kerakligini, chet ellardagi korxonalar bilan kelishib, ularga zarur mahsulot va ehtiyoj qismlar tayyorlab berish mumkinligini ta'kidladi. Yangi loyihalar ishlab chiqish, ularni aholining ishga talabi va mavjud resurslardan kelib chiqib, oqilona joylashtirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Toshkent mexanika zavodini ikki bosqichda rivojlantirish rejalashtirilgan. Davlatimiz rahbarining ko'rsatmasiga muvofiq, ushbu hududga birinchi bosqichda 500 million dollar, ikkinchi bosqichda yana 500 million dollar, jami 1 milliard AQSH dollari yo'naltiriladi. Buning natijasida 20—25 mingta ish o'rni yaratish mo'ljallanyapti.

Shu yerda Toshkent shahri tumanlariga to'g'riidan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish va hududiy eksport hajmini oshirishga qaratilgan loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

2019-yilgi Toshkent shahar investitsiya dasturiga umumiy qiymati 2,7 milliard dollarlik loyihalar kiritilgan

bo'lib, ularning ijrosi doirasida 1,8 milliard dollarlik to'g'riidan to'g'ri investitsiya jalb qilinadi. Dasturga muvofiq, joriy yil birinchi yarmida qariyb 1 milliard dollar mablag' o'zlashtirilib, sanoat, xizmat ko'rsatish, uy-joy qurilishi kabi sohalarda yirik loyihalar amalga oshirildi.

Davlatimiz rahbariga dasturning tumanlar kesimidagi ijrosi, shuningdek, unga qo'shimcha loyihalar haqida ma'lumot berildi.

Jami 35 million dollarlik ushbu loyihalar evaziga Sergeli tumanida polimer me'yorlagich va plastifikatorlari, bezakli plita va mozaikalar, Bektemir tumanida LED yoritkichlari, to'qimachilik buyumlari, Mirzo Ulug'bek tumanida qurilish materiallari, Yashnobod va Olmazor tumanlarida qandolat mahsulotlari, Yakkasaroy tumanida sport gilamlari, rezinali plitkalar ishlab chiqarish korxonalari tashkil etiladi. Bu kabi istiqbolli loyihalar boshqa tumanlarda ham ishga tushiriladi.

Shavkat Mirziyoyev 2020-yilgi investitsiya dasturini hozirdan shakllantirish, unda zamonaviy texnologiyalarni olib kelish hisobiga eksportbop mahsulotlarni ko'paytirish va yangi ish o'rinlari yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidladi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan aholining talab va ehtiyoji, poytaxtimizning kelgusi rivojlanishini inobatga olgan holda, Toshkent shahri atrofida yer usti halqa metro liniyasi, Maxtumquli va Ohangaron ko'chalari kesishmasida uch qavatli zamonaviy ko'priq qurilmoqda.

Ta'kidlash joizki, hozirgacha yurtimizda uch qavatli ko'priq qurilmagan. Mutaxassislar fikricha, poytaxtimizning eng gavjum chorrahalardan birida qad rostlayotgan bu ko'priq tirbandlikni ancha kamaytiradi. Ayni paytda yangi transport bog'larni Toshkent shahridan Chorvoqqa olib boruvchi yo'lni 22 kilometrgacha qisqartirib, shu tariqa Chorvoq va Chimyon hududlarini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Ko'priq loyihasini "Boshtransloyiha" aksiyadorlik jamiyati mutaxassislari ishlab chiqqan. Qurilish ishlarini "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatiga qarashli "Ko'priq qurilish trest" unitar korxonasi ishchilari bajarmoqda.

Loyihaga ko'ra, birinchi bosqichda Parkent va Ohangaron shossesiga o'tuvchi qismda uzunligi 502 metr, kengligi 26,7 metrli tunnel qurilmoqda. Tunnel balandligi jahon standartlariga mos ravishda 5,5 metr bo'lib, ikki yo'nalishda avtomobillar 3 qatorda harakatlanadi.

Ikkinchi bosqich doirasida Qorasuv dahasidan Maxtumquli ko'chasiga chiquvchi yo'lning mazkur tunnel ustidan o'tgan qismida aylanma ko'priq qurish ishlari qizg'in davom etmoqda. Bu ko'priq orqali to'rt yo'nalishda harakatlanish mumkin bo'ladi.

Keyingi bosqichda ko'priknig uchinchi qavati barpo etilib, u Maxtumquli va Temur Malik ko'chalarini tutashiradi. Bugun uning poydevori qurilmoqda. Yo'l o'tkazgichning umumiy uzunligi 593, kengligi 30 metrni tashkil etadi, avtomobillar 6 qatorda harakatlanadi.

Shuningdek, Toshkent mexanika zavodida ta'mirlangan samolyotlarni ishbilarmonlik aeroportiga olib borish uchun yo'l o'tkazgich qurilmoqda. Bunyodkorlik ishlarga 190 dan ortiq maxsus texnika va avtotransport vositasi, 220 dan ortiq quruvchi safarbar etilgan. Inshootni 2019-yil yakuniga qadar foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Shu yerda Prezidentimizga yer usti halqa metro liniyasi hamda Toshkent metropoliteni Yunusobod liniyasi va Sergeli yo'nalishidagi qurilish jarayoni haqida ma'lumot berildi.

Uzunligi 52,1 kilometr bo'lgan 35 bekati Toshkent yer usti halqa metro liniyasi loyihasining qiymati 422,3 million dollarga teng.

Loyiha besh bosqichda amalga oshirilyapti. Dastlab "Do'stlik" bekatidan Qo'yliq bozorigacha bo'lgan qism quriladi. 11 kilometrlik masofada 8 bekat bunyod etish mo'ljallangan. Ikkinchi bosqichda Qo'yliq bozori bilan "Olmazor" bekatiga bog'lanadi. So'ng "Beruniy" bekatigacha qatnovlar yo'lga qo'yiladi. Undan keyin "Bodomzor" bekatigacha bo'lgan qism quriladi. Keyingi bosqichda esa halqa metro liniyasi yana "Do'stlik" bekatiga ulanadi.

Joriy yilda Investitsiya dasturi doirasida davlat budjeti mablag'lari hisobidan 317,3 milliard so'mlik kapital qo'yilmalarni o'zlashtirish, jumladan, 257,5 milliard so'mlik qurilish-montaj ishlarini bajarish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda "Do'stlik" — "Qo'yliq" yo'nalishida qurilish jadal davom etmoqda. "Do'stlik" bekatidan Rohat aylanma yo'li oralig'ida 91 handaq qazilgan, 191 beton qoplama tayyorlangan. 190 ta birinchi pog'ona va 189 ta ikkinchi pog'ona temir-beton poydevori qurilgan, 173 tayanch ustuni, 57 rigel, 191 balka o'rnatilgan. Elektropoyezdlarning "O'zbekiston" deposiga o'tishi uchun 850 metrli yer osti yo'lining 158 metri qurilgan, 223 metrli tayanch devorni montaj qilish ishlari to'liq yakunlangan.

Shu bilan birga, Rohat aylanma yo'lidan "Qo'yliq" bekatigacha bo'lgan oralig'ida 150 handaq qazilgan, 150 beton qoplama tayyorlangan. 150 ta birinchi pog'ona va 150 ta ikkinchi pog'ona temir-beton poydevor qurilgan. 150 tayanch ustuni, 104 rigel, 104 balka o'rnatilgan, 157 metrli tayanch devorni montaj qilish ishlari nihoyasiga yetkazilgan.

"Do'stlik" — "Qo'yliq" yo'nalishini joriy yilning dekabr oyida foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Bunyodkorlik ishlarga 1000 nafar ishchi-muhandis, 300 dan ortiq texnika vositasi jalb qilingan. Metro qurilishi

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatiga qarashli "Ko'priq qurilish trest" unitar korxonasi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Keyingi vaqtlar qancha-qancha uylar qurilyapti, shahar rivojlanyapti. Shuni inobatga olib, jamoat transportini aholiga yanada qulay, arzon, xavfsiz qilib berishimiz kerak, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari ushbu yer usti liniyasini avtobuslar yo'nalishlari bilan o'zaro bog'lash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Prezidentimiz Yashnobod tumanining Maxtumquli ko'chasida zamonaviy tibbiyot va ilm-fan yutuqlari asosida barpo etilayotgan Bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi qurilishini borib ko'rdi. 280 o'ringa mo'ljallangan bu muassasada kardiokirurgiya, neyroxirurgiya, ortopediya va plastik xirurgiya, gemodializ, umumiy xirurgiya, onkologiya, oftalmologiya, pediatriya, reanimatsiya kabi bo'limlar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Koreya Respublikasi iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik fondi (EDCF) bilan birgalikda amalga oshirilayotgan ushbu loyihaning qiymati 130,58 million dollarni tashkil etadi. Markaz loyihasi jahon tibbiyotining noyob andozalari asosida ishlab chiqilgan. Hozir 4 qavatli asosiy davolash korpusi va 3 yordamchi xo'jalik binosi qurilyapti. Asosiy binoning 1-2-qavatlarida pardozlash, elektromontaj, santexnika, ventilyatsiya, yordamchi xo'jalik binolarida ichki va tashqi pardozlash ishlari bajarilmoqda.

Yangi tibbiyot muassasasida yiliga 1 500 dan ko'proq murakkab operatsiya o'tkaziladi. 42,3 million dollarlik 381 turdagi eng zamonaviy tibbiy uskunalar keltirilishi ko'zda tutilgan. Bu bolalar kasalliklariga 100 foiz tashxis qo'yish va davolash imkonini beradi.

Diagnostikadagi xatoliklar, shifokorlar malakasi yetishmaganini tufayli bemor bolalar, ularning ota-onalari ko'p qiynalardi, og'irroq kasal bo'lsa, nuqsonli bo'lib ham qoldi. Bu markazning eng muhim tomoni shundaki, u mamlakatimizdagi hamma muassasalar uchun bazaviy bo'ladi. Telemeditsina orqali uzoq hududlarimizdagi bolalarga ham yordam ko'rsatiladi, dedi Prezident.

Tibbiyot markazini qurish va jihozlash bilan birga, bu yerda ishlaydigan kadrlar malakasini oshirish bo'yicha ham qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Bugungi kungacha 19 shifokor Janubiy Koreyaning Pusan universitetida malaka oshirib keldi. Joriy yilning avgust oyida 30 hamshira, sentyabr oyida 24 tibbiy texnika va axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassis, noyabr oyida 21 shifokor yuboriladi.

Shuningdek, ushbu muassasa yonida EDCF bilan birgalikda IV darajadagi kattalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi barpo etish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari shu loyiha bilan tanishdi.

(Davomi 3-betda.)

YANGI SANOAT QUVVATLARI VA INFRATUZILMA IMKONIYATLARI XALQIMIZ FAROVONLIGIGA XIZMAT QILADI

(Davomi. Boshi 2-betda.)

Loyiha qiymati 150 million dollar bo'lgan 300 o'rinni markazda kardioxirurgiya, neyroxirurgiya, rentgenoendovaskulyar xirurgiya, angio-nevrologiya va ortopediya bo'limlari faoliyatini yo'lga qo'yish belgilangan. Yiliga 8 mingdan ortiq texnologik operatsiya o'tkazish imkoniyati yaratiladi, 764 yangi ish o'rni ochiladi.

Shavkat Mirziyoyev "Toshkent-Sharqiy" aerodromi negizida barpo etilayotgan aeroportni ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari o'tgan yili mazkur loyiha bilan tanishib, fuqaro aviatsiyasi tizimini takomillashtirish yuzasidan ko'rsatmalar bergan, mamlakatimizda ishbilarmonlik aviatsiyasini jonlantirish kerakligini ta'kidlagan edi.

Bugungi kunda aeroport hududida 4 kilometr uzunlikdagi 2 uchish-qo'nish yo'lagi, 20 samolyot uchun perron qurilmoqda. Aeroport ikkita terminaldan iborat bo'ladi. Birinchi terminalda davlat rahbarlari va hukumat delegatsiyalariga, ikkinchi terminalda soatiga mingta VIP-yo'lovchiga xizmat ko'rsatadigan bino

va inshootlar barpo etiladi. Kuniga 100 tonna yukni qayta ishlash, "Boing-787", "A-320" samolyotlari va "MI-8" rusumdagi vertolyotga texnik xizmat ko'rsatish imkoniyatlari yaratiladi.

Qurilish ishlari "O'zbekiston temir yo'llari" AJ buyurtmasi asosida "Trans yo'l qurilish maxsus pudrat" MChJ, "Qurilish-montaj tresti" va "Toshkent ko'priklardan foydalanish" unitar korxonalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Loyihalash, qurish va foydalanishga topshirish bo'yicha kompleks ishlarni bajarish uchun Shveysariyaning "B and Contractors S.A." va "IT Engineering S.A." kompaniyalari bilan shartnoma imzolangan.

Loyihaning birinchi bosqichini 2020-yilda yakunlash rejalashtirilgan.

Prezidentimiz bu yerdagi qurilish jarayoni bilan tanishib, chet ellik mutaxassislar bilan suhbatlashdi. Aeroportni uzoqni o'ylab, sifatli va xavfsiz qilib qurish zarurligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari Toshkent viloyatining Qibray va Yuqori Chirchiq tumanlari hududida qurilgan yangi

avtomobil yo'lini borib ko'rdi. Chirchiq daryosi ustiga qurilgan ko'priklardan tanishdi.

19,2 kilometr uzunlikdagi yangi qurilayotgan avtomobil yo'li "Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish direksiyasi" davlat unitar korxonasi buyurtmasi asosida "Toshkent ko'priklardan foydalanish" unitar korxonasi tomonidan barpo etilmoqda.

Uch bosqichda amalga oshirilishi belgilangan mazkur loyiha davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilmoqda. 1-2-bosqichga 306 milliard so'm mablag' yo'naltirilgan.

Birinchi bosqichda avtomobil yo'lining 12,1 kilometr masofasida yer ishlari, qum-shag'al aralashmasidan va M-75 markali betondan asos qurish, sun'iy inshootlar qurish va 2 ta joyda ko'priklardan qurish ishlari yakunlangan. Avtomobil yo'li ustiga 9 santimetr qalinlikda yirik donali asfaltbeton va 6 santimetr qalinlikda mayda donali asfaltbeton qorishmasini yotqizish, avtomobil yo'lining yoritish tizimini

hamda piyodalar yo'lagini qurish ishlari davom etayotir.

Yo'l 6 polosali bo'lib, zamonaviy andozalar asosida qurilgan. Ikki chetida piyodalar uchun maxsus yo'laklar barpo etilgan.

Loyihaning ikkinchi bosqichida 6,5 kilometr uzunlikdagi avtomobil yo'lini qurish belgilangan bo'lib hozirgi kunda yer ishlari, qum-shag'al aralashmasidan asos va sun'iy inshootlarni qurish ishlari bajarilmoqda.

Birinchi va ikkinchi bosqichda belgilangan ishlar joriy yilning o'rtinchi choragida yakunlanib, foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Prezidentimiz yo'llar qurilishini izchil davom ettirish, bu sohada sifatni ta'minlash uchun malakali kadrlar tayyorlash zarurligini ta'kidladi. Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalashtirish, qurish va foydalanish institutida Germaniyaning o'qitish tizimini joriy qilish, shu sohada o'rta mutaxassislar tayyorlaydigan mintaqaviy kollejlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berdi.

O'ZA

O'ZBEKISTON VA TURKMANISTON PREZIDENTLARINING TELEFON ORQALI MULOQOTI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28-iyun kuni Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari suhbat avvalida Turkmaniston Prezidentini tug'ilgan kuni munosabati bilan samimiy muborakbod etib, unga mustahkam sog'liq, baxt-saodat va muvaffaqiyat tiladi.

Bugungi Turkmaniston Prezident Gurbanguli Berdimuhamedov rahbarligida davlat va jamiyat qurilishi sohasida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida ulkan yutuqlarga erishayotgani alohida qayd etildi.

Turkmanistonning xalqaro nufuzi izchil yuksalib borayotgani ta'kidlandi. Turkmaniston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan ushbu tashkilot va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida navbatdagi rezolyutsiya qabul qilingani, 2020-2021-yillarda mamlakatda sambo va trek velosporti bo'yicha jahon chempionatlari o'tkazilishi shundan dalolat beradi.

Prezidentlar ikki tomonlama munosabatlar va mintaqaviy siyosatga doir dolzarb masalalarni ko'rib chiqdilar.

O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlari izchil mustahkamlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

O'zaro savdo hajmini yanada oshirish, transport, energetika, sanoat va qishloq xo'jaligi sohasidagi kooperatsiyani kuchaytirish muhimligi ta'kidlandi.

Prezidentlar Hukumatlararo qo'shma komissiya ishini faollashtirish, shuningdek, chegaradosh hududlar o'rtasidagi samarali ishbilarmonlik va madaniy-gumanitar hamkorlikni davom ettirish lozimligini aytib o'tdilar.

Muloqot so'ngida davlat rahbarlari qardosh mamlakatlarimiz va xalqlarimiz farovonligi, butun Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror taraqqiyoti yo'lida O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi ko'p qirrali sheriklikni yanada rivojlantirish va mustahkamlash borasidagi intilishlari qat'iy ekanini yana bir bor tasdiqladilar.

O'ZA

O'ZBEKISTON — YOSHLAR MAMLAKATI VA BU YERDA IMKONIYATLAR CHEKSIZ

Hududlarda hamon "Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi asosida imtiyozli kredit olmoqchi bo'lganlardan ortiqcha hujjatlar talab qilish holatlari uchrab turibdi. "Yoshlar — kelajagimiz" jamg'armasi mutaxassislari bu kabi salbiy holatlarni joyida hal qilish choralari ko'rmoqda. Agarda muammoga joyida yechim topilmasa, jamg'arma Markaziy bankka yozma tarzda murojaat qiladi.

Bu haqida O'zbekiston Milliy matbuot markazida "Yoshlar — kelajagimiz" jamg'armasining bir yillik faoliyatiga bag'ishlangan matbuot anjumanida ma'lum qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi farmoniga asosan, "Yoshlar — kelajagimiz" jamg'armasi tashkil etildi. Yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kredit va mol-mulk lizingga beriladi. Imtiyozli kreditlar va mol-mulkni lizingga berish 5 yil muddatga 12 oygacha imtiyozli davr bilan taqdim etiladi. Imtiyozli kreditlar va mol-mulkni lizingga berish O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, "Ipak yo'li" AITB, Xalq banki va "Hamkor bank" ATB orqali amalga oshiriladi. Yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini Savdo-sanoat palatasi tomonidan moliyalashtiruvchi tijorat banklari bilan birgalikda ishlab chiqiladigan namunaviy biznes-rejalar asosida moliyalashtiriladi.

— Yoshlar tadbirkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlari yaratish va yoshlar bandlegini ta'minlash maqsadida bugungi

kunga qadar jamg'arma mablag'lari hisobidan 4 ming 335 ta loyihaga jami 692,4 milliard so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratildi, — dedi O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi raisining birinchi o'rinbosari, "Yoshlar — kelajagimiz" jamg'armasi ijrochi direktori Bunyodbek Bahrombekov. — Natijada respublika bo'yicha 25 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratildi. Davlat dasturining yana bir ahamiyatga molik jihati shundaki, yosh tadbirkorlar tomonidan olinadigan kredit qiymatining 50 foizigacha jamg'arma tomonidan bevosita kafilliklar berish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. O'tgan davr mobaynida 46 ta yosh tadbirkorning 15,9 milliard so'mlik loyihalariga jamg'arma kafilligi taqdim etilib, ularning tadbirkorlik faoliyatini boshlashiga ko'maklashildi.

Ta'kidlanishicha, Davlat dasturining yoshlarga berayotgan yana bir imkoniyati, bu shubhasiz minglab yoshlarni o'z bag'riga jalb qilgan va ularning tadbirkorlik sohasidagi bilimlarini oshirish bilan bir qatorda bandlegini ta'minlashga xizmat qilayotgan jami 19 ta "Yosh tadbirkorlar" kovorking-markazi, 125 ta "Yoshlar mehnat guzari" kompleksi foydalanishga topshirilgan. Ularda jami 1 814 ta yangi ish o'rni yaratilgan. Bundan tashqari, 2019-yil yakuniga qadar yana 35 ta "Yosh tadbirkorlar" kovorking-markazi, 200 ta "Yoshlar mehnat guzari" kompleksi foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish borasida 2018-yilning oktyabr oyida birinchi bor "O'zbekiston — Rossiya yoshlar biznes forumi" o'tkazildi. Hamkorlik natijasida ikki mamlakatning yosh ishbilarmonlari o'rtasida o'zaro tajriba almashish va hamkorlik munosabatlari o'rnatishga ko'maklashishga qaratilgan "Yoshlar biznes inkubatori" tashkil etildi.

Xurshid QODIROV,
O'ZA muxbiri

Halol mehnat va so'zga mas'uliyat e'tirofi

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Tabrikda yurtimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatining ochiq va oshkorligini ta'minlash, axborot maydonidagi fikrlar xilma-xilligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar barobarida soha xodimlari oldida turgan muhim vazifalar xususida so'z yuritilgan. Jumladan, davlatimiz rahbarining "...O'zining bilim va salohiyatiga, ishchanlik fazilatlariga ishongan rahbar tanqiddan qo'rqmaydi, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni xalq bilan muloqotning samarali vositasi, deb biladi. Aslida ham bunday muloqot taraqqiyotimizni ta'minlaydigan eng asosiy omillardan biridir.

Ayni vaqtda barchamiz bir haqiqatni unutmasligimiz zarur: axborot maydonidagi turli bahs va tortishuvlar, avvalo, haqqoniylik va xolislik tamoyillariga asoslanishi, qonun va odob qoidalaridir doirasida bo'lishi, shaxsiy g'araz va xusumatga, soxta obro' o'rtirish usuliga aylanib ketmasligi, inson shaxsi va sha'nini tahqirlashdan yiroq bo'lishi, bunday salbiy holatlarga bizning media maydonimizda mutlaqo o'rin bo'lmasligi kerak" degan so'zlari jurnalistlarni adolat va shaffoflik, xolislik tamoyillariga asoslanib faoliyat olib borishga undaydi.

Tabrikdan so'ng Prezidentimizning "Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmoni o'qib eshittirildi.

Mukofotlarni O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A. Aripov topshirdi.

"Ma'rifat" gazetasi bo'lim muharriri, fidoyi jurnalist, mohir muharrir, jonkuyar murabbiy Mahmud Sa'dinov (Mahmud



Sa'diy) "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

Ustoz qariyb 55 yillik ijodiy faoliyati davomida "Sharq yulduzi", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Guliston", "Hurriyat", "Ma'rifat" singari markaziy nashrlarda samarali mehnat qildi. Uning sa'y-harakatlari tufayli O'zbekistonning yaqin tarixidagi murakkab davrlarda dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizni xalqimizga tanitish, asriy qadriyat va an'analarimizni, bobolarimizdan qolgan boy ma'naviy merosni tiklash va o'rganishga doir turkum maqolalar katta jasorat bilan e'lon qilindi.

Uning mas'ul muharrirligida xalqimiz, xususan, yosh avlod ma'naviyatini boyitadigan, teran fikrlashga undaydigan fundamental asarlar chop etildi. Ustoz jurnalistning jurnalistika rivojiga qo'shgan yotgan hisssasi davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. U 1994-yili "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist" unvoni, "Oltin qalam" xalqaro milliy mukofotiga munosib ko'rilgan.

Mahmud Sa'diy "Teran tomirlar" kitobi muallifi. Qozoq xalq maqol va latifalari jamlangan "O'zbek — o'z og'am", "Aldarko'saning hangomalari" (hammualliflikda) to'plamlarini o'zbek tiliga o'girib, nashrga tayyorlagan. Zabardast muharrirning ijodiy faoliyati haqida "Qadr" nomli to'plam nashr etilgan.

Shu kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi.

Qarorga muvofiq, davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlarining mavqeyi oshirilib, ommaviy axborot vositalari bilan muloqot o'rnatish, jurnalistlarni zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash, muassasa faoliyatini yoritish bo'yicha vakolat va majburiyatlari aniq belgilab berildi.

MUXBIRIMIZ

Yoshlarga oid davlat siyosati masalalari muhokama etildi

Poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tomonidan "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishdagi yangicha yondashuvlar: dastlabki natijalar, dolzarb muammolar va istiqbol-dagi vazifalar" mavzusida konferensiya o'tkazildi.

Tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 21-iyunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yigirmanchi yalpi majlisida so'zlagan nutqida parlament yuqori palatasi oldiga qo'ygan vazifalar mazmun-mohiyatidan kelib chiqib tashkil etildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarning huquqi va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ularga o'z intilish va qobiliyatlarini ro'yogga chiqarish, jamiyat va davlat rivojiga munosib hissa qo'shishlari uchun yaratilgan imkoniyat — yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy ustuvor maqsadlaridan biridir.

Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarning mustahkam huquqi asosini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi va amaliy ko'magi asosida Yoshlar ittifoqi faoliyatiga doir jami 40 ta qonun va qonunosti hujjati qabul qilindi. Yoshlar masalalari bilan bog'liq 70 ga yaqin me'yoriy-huquqi hujjatga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

Yoshlar salohiyatini ezuq maqsadlarga yo'naltirish, ularni konstruktiv g'oyalari atrofida birlashtirish bo'yicha ham aniq choralar amalga oshirilmoqda. Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik

palatasida Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya va "Yoshlar klubi" tuzildi.

Mamlakatimiz yoshlarini qo'llab-quvvatlash, har bir sohadagi samarali faoliyati, yutuqlari va iqtidorlarini munosib baholash va rag'batlantirib borish maqsadida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti hamda "Kelajak bunyodkori" medali ta'sis etildi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil qilingan sana — 30-iyun mamlakatimizda "Yoshlar kuni" sifatida belgilandi. Bu, o'z navbatida, tegishli davlat tuzilmalari va jamoatchilik e'tiborini yana bir bor yoshlar bilan bog'liq masalalarga qaratishga, galdagi vazifalarni belgilab olishga xizmat qildi.

Tadbirida O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi raisining birinchi o'rinbosari Alisher Sa'dullayev Yoshlar ittifoqi faoliyati, yoshlarga oid davlat siyosati xususida ma'lumot berdi. Uning qayd etishicha, Yoshlar ittifoqi uchta eng asosiy yo'nalishni ustuvor vazifa sifatida o'z oldiga qo'ygan. Birinchisi, yoshlar bandligini ta'minlash. Ushbu yo'nalishda joriy yilda 50 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilgan. Ikkinchisi, yosh tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yoshlarni biznes bilan shug'ullanishga faol jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratish. Bu borada "Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi doirasida tizimli ishlar qilinayapti. Uchinchisi, yoshlar jinoyatchiligining oldini olish masalasidir.

Mas'ul davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan yoshlar masalalariga doir yangi tashabbuslarni aynan yoshlar bilan bevosita muloqotlar asosida shakllantirish, bu borada o'zaro hamkorlikni amalda samarali yo'lga qo'yishga e'tiborni oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Nurillo NASRIYEV,
O'za muxbiri

O'qituvchi

nimani

o'ylaydi?



✓ O'qituvchidan faqat natijani talab qilish kerak. Bizda hujjatlar so'raladi, kimning qog'ozlari "joyida bo'lsa", o'sha zo'r o'qituvchi hisoblanadi. Bu odatlardan qachon voz kechiladi?

Ahmadxon MUSTAFOQULOV

✓ Hamkasblari darsini kuzatmagan, tajriba almashmagan o'qituvchi o'qituvchi emas! Bu jarayonda ba'zan tajribali o'qituvchi yosh muallimdan zamonaviy metodlarni, ilg'orlikni, texnik savodxonlikni o'rgansa, yosh o'qituvchi tajribali ustozdan haqiqiy pedagogikani o'rganadi. Tahlil daftarini yuritish ayrim o'qituvchilarga yoqmaydi, ammo sidqidildan yondashilsa, u o'qituvchining yondashilarga aylanishi mumkin.

Shavkatbek AZIMOV

✓ Maktab direktorlarining oyligi xodimlarinikidan kam. Shunday bo'lsa-da, ular mingan mashinani xodimlar minolmaydi. Buning sababi, xodimlar olgan oyligining yarmini ishga sarflashadi. Tibbiy ko'rik, ko'rgazmali qurol, plakat, rangli qog'oz, fayl papka, tarqatmalarga o'z hisobidan pul to'laydi. Biz birgina yillik ish rejamizni 100 000 so'mga chiqartiramiz.

Iymon ISLOMOV

✓ Yaqindagina charchadim, nafaqaga chiqaman, deb yurganlar pensionerlarga maosh ham, nafaqa ham to'liq berilayotganini eshitib ishda qolyapti. Hali dars berishga yaroqli, shijoati, ishga bo'lgan mas'uliyati so'nmgan o'qituvchi bo'lsa boshqa gap edi, ammo ochiq aytish kerakki, ularning ayrimlari yosh muallimga pedagogik mahorat borasida o'mak bo'lish u yodda tursin, hatto darsini eplab o'tmaydi. Yosh mutaxassislar ish topolmay chet davlatlarga qarab yo'l olayotgan bir paytda nafaqa yoshidagilar ham pensiya, ham ish haqini yuz foiz olish ilinjida o'rinni bo'shatmay o'tirsa-ya...

Nilufar MAMADIYEVA

✓ Maktabda dars har qancha yaxshi o'tilmasin, o'quvchi uni u yda takrorlamasa, dars tayyorlashni faqat daftar to'ldirish deb tushunsa, ta'lim sifatiga erishib bo'lmaydi.

Manzura SHUKUROVA

✓ Maktablarning sport maydonchalarini ta'mirlab, talab darajasiga yetkazish uchun qancha mablag' ketarkan? Maktab stadionlarida futbol o'ynayotgan bolalarga ming xavotir bilan qaraymiz, yiqilsa hech narsa bo'lmadimkan, deb.

Gulbahor YO'LDOSEVA

Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi — 2019

“TV-tanlov” o'tkazilsa...

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Joriy yil tanlov nizomiga kiritilgan o'zgartirishga ko'ra oliy ma'lumotli, kamida uch yillik pedagogik ish stajiga hamda ikkinchi va undan yuqori malaka toifasiga ega o'qituvchilar bellashuvda ixtiyoriy qatnashib, Xalq ta'limi vazirligining rasmiy veb-saytidagi maxsus sahifada onlayn ro'yxatdan o'tishdi. E'tiborlisi, ishtirokchilardan talab qilinadigan hujjatlar soni 10 tadan 5 taga qisqarib, barchasi elektron shaklda qabul qilindi. Tanlov shartlari esa 5 tadan 3 taga qisqartirildi, bellashuvni adolatli o'tkazish uchun hakamlar hay'ati tarkibiga barcha hududdan teng miqdorda vakil tayinlandi. Har bir test savolini yechish uchun aniq fanlarga uch daqiqa, ijtimoiy va filologiya fanlariga ikki daqiqadan vaqt berildi. Test materiallari mazmuniga PISA, TIMSS xalqaro baholash talablari singdirildi. Ishtirokchilarning bali teng bo'lgan taqdirda, tegishli fan bo'yicha qo'shimcha 10 tadan test savoli berish orqali g'olib aniqlanishi, bu amalga oshguncha test jarayoni takroriy davom ettirilishi ham o'qituvchilar o'rtasida tenglikni ta'minladi. Muhimi, ishtirokchilarning o'ziga ishonchi ortgani namoyon bo'ldi. Avvalgi yillarda dars o'tish uchun yashirin mavzu tanlanardi. Bu yil esa o'qituvchi tanlov chog'ida kompyuterda yozgan dars ishlanmasi asosida keyingi turda mashg'ulot o'tib berdi va nazariy bilimning qanchalik puxta ekanini amaliyotda isbotlashga harakat qildi.

Testdagi savollar mantiqan to'g'rimi?

Tanlovdagi test jarayoni xususida turli mulohazalar bildirildi. Masalan, bellashuvning tuman bosqichida ayrim fanlardan hammaga test savollari teng berilmagani, onlayn test ishlash jarayonida “kutilmaganda” elektr tarmog'ining uzilishi tufayli kompyuterlar o'chib qolishi, savollarning murakkab va chalkash tuzilgani ayrim noroziliklarga sabab bo'ldi. Shu bois ba'zi ishtirokchilar o'z istagi bilan tanlovni tark etishga ham rozi bo'lgan.

Muhayyo Shomurodova, Toshkent shahridagi 153-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi:

— Bu yil tanlovning birinchi va ikkinchi bosqichida ishtirok etdim. Testga kirayotib hayajonlandim, ochig'i. Bir tarafdin o'qituvchining kasb malakasini sinashda avval dars o'tishi yoki dars ishlanmasidagi savodxonligi tekshirilmay birinchi turning o'zidayoq test o'tkazilgani, ikkinchi tarafdin kuza-tuvchilarning qo'pol muomalasi dilimni xira qildi. Nazoratчилardan birining yonimizdagi ishtirokchiga ko'maklashayotganiga ko'zim tushdi. U atrof-dagilarning e'tirozli savoliga “Bu o'qituvchi kompyuterni tushunmas ekan, shuning uchun qarashyapman”, deb javob bergani ajablanarli. Chunki tanlovda qatnashishning ikkinchi shartida pedagog axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi zarurligi ta'kidlangan. Buni tushunmagan ishtirokchi birinchi bosqichning uch turida qanday qilib g'olib bo'ldi, degan haqli savol tug'iladi.

Test savollarining uzundan uzun jum-lalardan tuzilgani, javoblar mantiqsizligi



bois tahlil uchun oq qog'oz va ruchka so'radik, ammo berilmadi. Masalan, bir savolda to'rt-besh gapdan iborat so'zlarning ma'no ko'chish, boshqasida sintaktik tahlil, tinish belgi yoki kelishik turlarini aniqlash topshirig'i berilgan. Javoblar esa, bosh kelishik, uchta belgisi qaratqich, ikkita belgisiz tushum, ikkita belgisiz qaratqich va hokazo. Adabiyot fanidan “1960–1965-yillarda “Sharq yulduzi” tahririyatida muharrirlik qilgan shoirning hayotida qanday voqea ro'y bergan?” degan savol ham pedagog mahoratini belgilashda muhim emas, menimcha.

Saidaxon Eshmurodova, Termiz shahridagi 13-maktabning davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi:

— Ko'rik-tanlov adolatli o'tkazildi. Termiz shahrida bo'lib o'tgan viloyat bosqichida qatnashib, 1-o'rinni egalladim. O'zim yozgan metodik dars ishlanma asosida notanish sinf o'quvchilariga dars o'tdim va hakamlarning yuqori bahosiga sazovor bo'ldim.

Lobar Yoqubova, Romitan tumani-dagi 13-maktab o'qituvchisi:

— “Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi” ko'rik-tanlovi o'qituvchilarni o'z ustida ishlashga o'rgatadi. Yillar davomida to'plagan tajribasi orqali pedagog nimaga qodirligini shu tanlovda namoyon etishi mumkin. Ammo jarayon xususida ba'zi e'tirozlarim ham yo'q emas. 1-shartda berilgan testlarning takroriyliigi, to'g'ri javobning yo'qligi va hatto aniq javob turib, xato javobning to'g'ri deb olingani hafsalamni pir qildi. Masalan, bir savolda “Kuntug'mish” dostonidagi tog' nomi so'ralgan. Tog' nomi — Mug'ol, biroq to'g'ri javob sifatida Tajang (dostondagi daryo nomi) varianti olingan. Nahotki, testlar ekspert ko'rigidan o'tkazilmagan? Tanlovning 3-shartida ba'zi ishtirokchilar dars o'tadigan sinfiga kirib, o'quvchilarga o'zi tayyorlagan savollar javobini, topshiriqlar yechimini berishdi.

Layk bosing yoxud “tanimaganni siylamas”

Nizomga kiritilgan o'zgartirishlar pedagoglar o'rtasida muhokamaga sabab

bo'ldi. Masalan, ta'lim sifatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimi to'g'risida loyiha taqdimotini tayyorlashi, respublika bosqichi ishtirokchilarining loyiha taqdimotlarini ijtimoiy tarmoq — “Facebook” orqali e'lon qilib jamoatchilik bahosini to'plashi qay darajada to'g'ri?

Dilnoza Boqiyeva, Yakkabog' tumani-dagi 34-umumta'lim maktabining boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi:

— Men ham bu yil “Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi” ko'rik-tanlovining tuman bosqichida 1-o'rinni egalladim. Viloyat bosqichida testdan 26 dan yuqori ball olganlarga 2-turda qatnashishga ruxsat berildi. Biroq testda biroq chalkash savollar berilgani bois javobni tavakkal belgilashga majbur bo'ldim. Dars ishlanma bilan testdan 40 dan yuqori ball olganlar 3-turga tayyorlanishdi. Bu turda 6 ta tumanning boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirok etdi. Har ikki bosqichda jarayon adolatli o'tdi.

Aytish mumkinki, tanlovning o'tkazilish tartibida avvalgi yillarga nisbatan ijobiy o'zgarish ko'p. Ammo o'qituvchi uchunchi bosqichga o'tishda ijtimoiy tarmoq orqali ovoz berish yo'li bilan 20 ball to'plashi zarurligiga qo'shimladim. Chunki chekka hududlardagi pedagoglar, o'z sohasining bilimdoni bo'lgan o'qituvchilar bu balni yig'olmasligi mumkin. Qishloq joylarda internet yaxshi ishlamasligi sabab ko'pchilik ijtimoiy tarmoqqa material joylash imkonidan mahrum. Ayrim o'qituvchilar internetdan foydalanishni umuman bilmaydi. Buning o'miga o'qituvchining yillar davomida bajargan ishi, ilg'or tajribasi baholansa, nur ustiga nur bo'lardi.

Gulchehra Ashurova (Surxondaryo viloyati):

— Ko'rik-tanlov shartlariga ko'ra, ishtirokchilarning ijtimoiy tarmoqqa joylan-gan loyiha taqdimotiga “layk” bosish orqali ball to'plashar ekan. Bunday baholashni nisbiy deb bilaman. Bu shartda kam ball olgan o'qituvchilar “aybsiz aybdor” bo'lib qoladi. Sababi, layk to'plash imkoni hammada har xil. Bu shartda ko'proq ball yig'ish uchun turli yo'llardan foydalanilayapti. Masalan,

o'qituvchilar ijtimoiy tarmoqlarda ovoz yig'ish bilan ovora bo'lyapti. Bu jarayonni halol deb bo'lmaydi. Aksincha, ishtirokchi o'zi tayyorlagan loyihani sharhlay, shunga qarab baholansa, mantiqqa to'g'ri keladi.

O'qituvchi taklifi

Mirzohid Musoqulov, Qo'shrabot tumanidagi 42-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi:

— Chekka hududlarda kuchli pedagoglar ko'p, biroq ular yashaydigan joyda ijtimoiy tarmoq va internetdan foydalanish imkoni kam. Tanlov bosqichlarida onlayn shartlar o'rniiga teletanlov shaklini qo'llashni taklif etardim. Bunda “Yosh kitobxon” tanlovini tashkil etish tajribasidan foydalanish mumkin. Faqat bosqichli shartlar televideniye talablariga mos tarzda ta'limiy va tarbiyaviy maqsaddan chetga chiqmagan holda ishlab chiqilsin. Fanlar soni ko'pligi hisobga olingan holda bir yildagi tanlov bir kun yoki bir oyda o'tkazilishi, namoyish etilishi qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun yil davomida fan oyliklari kesimida har oyda “TV-tanlov” o'tkazilib, mutaxassislik bo'yicha professorlar, darslik mualliflari, tajribali o'qituvchilar hakamligida o'qituvchining faoliyati baholansa, adolatli bo'ladi. Shunda o'z nomi bilan “Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi” faoliyatidagi lav-halarni yil davomida xalq ko'radi, baholaydi, e'tirof etadi. Yosh mutaxassislar ham o'qituvchilikning mas'uliyati va mashaqqatini anglaydi, ibrat oladi.

Dildor Nurmuhammedova (Termiz tumani):

— Bu yilgi tanlov shartlari qog'oz-bozlikka chek qo'yilgani va qilingan ishlarning omмага taqdim etilayotgani bilan ahamiyatli. Oxirgi bosqich shartlari, ya'ni yutuqlar, ta'lim tizimi uchun qilingan ishlarning “Facebook” ijtimoiy tarmog'ida baholanish haqidagi shartlar tuman bosqichida ham o'z aksini topsa, yaxshi bo'lardi. Chunki tuman, viloyat bosqichidan o'tgan pedagoglarning aksariyati yosh, g'olib bo'lishi uchun yutuq va amaliy ishlari yetarli emas. Tuman va viloyat bosqichida 1-shart test yechish bo'lgani uchun ham, asosan, repetitor o'qituvchilarning omadi keldi. Ammo bu shart ularning mahoratli o'qituvchi ekaniga qanchalik kafolat beradi? Respublika bosqichi shartlari orqali esa ham bilimli, ham mahoratli o'qituvchini tanlash mumkin. Tanlov bo'yicha taklifim — viloyat bosqichidagi dars ishlanmani yozish va uni taqdim etish jarayonini baholash onlayn bo'lsin. Istaymizmi, yo'qmi, o'qituvchi bir vaqtning o'zida hamma darsliklar asosida dars o'tib yurmagan bo'lsa, takrorlanmagan bilim yoddan chiqadi. Bu esa o'qituvchi bilimsiz, degani emas. Faqat test, bir soatlik ishlama va dars o'tish aynan shu tanlov g'olibi bo'lish uchun kamlik qiladi, deb o'ylayman. Fikrimcha, dastlabki bosqichlardan qanoq o'qituvchining ta'lim tizimi uchun qilgan mehnatlarining amaldagi natijasi o'rganilsa, shundan so'ng uning bilimi, mahorati namoyish etilsa, to'g'ri bo'ladi.

Shoira BOYMURODOVA,
«Ma'rifat» muxbiri

Maktabgacha ta'lim muassasalarida

“Alpomish”ga keling

Nukus shahri “Navbahor” MFY hududida 150 o'ringa mo'ljallangan “Alpomish” maktabgacha ta'lim muassasasi foydalanishga topshirildi. Davlat-xususiy sheriklik asosida 5 mlrd 400 million so'm mablag' evaziga qurilgan bog'chada gimnastika, erkin kurash, tasviriy san'at, suzish, musiqa kabi o'nlab to'garaklar tashkil etilgan. E'tiborli jihati, muassasaga bolalar ota-onalar iltimosi va taklifiga ko'ra bir yarim yoshdan qabul qilinmoqda. Kichiktoylar yoshi bo'yicha guruhga bo'linib, dastlabki ta'lim-tarbiyani mehribon tarbiyachilaridan ola boshlashdi.

— Bolalar bilan ishlash uchun bilimdan ham ko'proq mehr zarur, — deydi muassasa mudiri Gulnoz Jiyemuradova. — Bola bilan bola bo'lib til topishish mumkin. Ularning tabiati bir qaraganda inij ko'rinadi, ammo bu bolaning o'z xohishiga ko'ra nimadir qilishni istashi, mustaqil fikri hisoblanadi. Ikkinchidan, bolalarni o'z o'yinidan ayirmaslik zarur. O'yin shunchaki nima bilandir ovunish emas, rejalashtirilgan, chuqur ma'noga ega harakat. Psixologlar bolaning o'yiniga qarab, uning ruhiy dunyosi, ichki olami haqida tasavvur va tushunchalarni aniqlash mumkinligini aytishadi. Shu qatori kichiktoylarga ertak (adabiyot), musiqa, rasm, umuman, ijod olamida yashashlari uchun ham imkoniyat yaratish muhim. Maqsadimiz jahon tajribasini chuqur o'rganib, bog'chamizda yangi to'garaklarni ko'paytirish, ota-onalar bilan yana ham faol ishlashni yo'lga qo'yishdan iborat.

Bog'chada gimnastika zali, alohida o'yin maydonchasi, basketbol maydonchasi va kichik basseyn mavjud. Tuli-tuman o'yinchoqlar bola dunyoqarashining rivojiga xizmat qiladi. Asosiysi, bog'cha bolalar yoshiga mos tarzda jihozlangan.

Nesibeli MAMBETIRZAYEVA,
“Ma'rifat” muxbiri

Bog'cha — bolalarni ovutadigan maskan emas

Keyingi ikki yilda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, sohani yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Tabiiyki, bu o'zgarishlar bizning 471-MTMda ham o'z aksini topyapti. Bog'chamiz 300 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, hozir 287 nafar bola tarbiyalanmoqda.

Tan olish kerak, hali ham ayrim ota-onalar bolalar bog'chasini ular ishdaligida bolaga qarab turuvchi muassasa deb biladi. Zarurat bo'lsagina bolani bog'chaga berish kerak, deb hisoblaydiganlar ham talaygina. Aslida bog'chaga borgan bola bilan uyda o'sgan, tengqurlari bilan kam muloqotda bo'lgan bola o'rtasida katta farq bor. Bolakay maktabga borganida bu yaqqol bilinadi. Zero, maktabgacha ta'lim muassasasi, birinchi navbatda, bolani tartib-intizomga, o'z vaqtida va sog'lom ovqatlanishga, tengdoshiga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Yosh avlodni bog'chadanoq yaxshi tarbiyalash, bilim berish faqatgina yaratilgan sharoitlarga emas, ko'proq kadrlar malakasiga bevosita bog'liq. Zero, bolaning dastlabki

taassurotlari, biror sohaga qiziqishi aynan tarbiyachilarning mehnati orqali kurtak otadi. Ana shu hayotiy haqiqatdan kelib chiqib, bog'chamizdagi 11 nafar tarbiyachining malakasini oshirib borishga alohida e'tibor qaratyapmiz.

Ochig'ini aytish kerak, shu kungacha malakali, o'z kasbining ustasi bo'lgan tarbiyachilarni topish birmuncha murakkab edi. Negaki, kadr tanlashda moddiy rag'batlantirish asosiy o'rinda turadi. Uzoq yillar bu borada aytarli o'zgarish bo'lmadi va malakali kadrlarni ishga jalb qila olmadik. Prezidentimizning “Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarining ayrim toifalari mehnatiga haq to'lashni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bu borada juda katta siljish bo'ldi. Ayni paytda

Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan ushbu qaror asosida tarbiyachilarga haq to'lashning mutlaqo yangi tizimi joriy etilayotgani bolalar bog'chalariga o'z kasbining haqiqiy fidoyilarini jalb etishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Har bir ota-ona bolasini berishdan oldin bog'chadagi ovqatlarning miqdori va sifati bilan qiziqadi. Chunki bolaning sog'lom o'sishi uchun kundalik taomnomaning ahamiyati juda katta. Afsuski, bu borada ham yaqin kunlarga ega bo'pchilik ota-onalarning ko'ngli to'lmadi. Bolasining ovqatlanish tartibida kamchilik bo'lmisligi uchun ham uni bog'chaga berishga oshiqmadi. So'nggi yillarda davlat maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ovqatlanish me'yori rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqildi. Hozir ushbu yangilangan ovqatlanish me'yorlari respublikaning barcha maktabgacha ta'lim muassasalarida, xususan, bog'chamizda ham joriy etilgan.

Surayyo SHODIYEVA,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi
471-MTM mudirasi

Bir tonnadan ziyod og'u yoqildi

26-iyun — Xalqaro giyohvandlikka va giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurash kuni munosabati bilan Davlat xavfsizlik xizmati, huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan noqonuniy muomaladan musodara qilingan 1 tonna 27 kg 911 gr giyohvand moddalarni yo'q qilish tadbiri o'tkazildi.

Tadbirda mamlakatimizdagi diplomatik korpuslar, BMTning narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi vakillari, ommaviy axborot vositalari xodimlari hamda keng jamoatchilik ishtirok etdi. Yig'ilishda 2018-yili

O'zbekistonda huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan narkotrafikka qarshi kurashish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgani, xususan, giyohvandlik vositalarini mamlakatimizga olib kirish yo'llarini to'sish, ularning nafaqat respublikamiz hududidagi noqonuniy muomalasi, balki hududimiz orqali tranzit qilinishiga chek qo'yish hamda uyushgan jinoyi guruhlarini yo'q qilishga doir ko'rilgan zarur chora-tadbirlar haqida gapirildi.


O'tgan yili giyohvand vositalarining noqonuniy aylanishi bilan bog'liq 4 779 ta jinoyat fosh etilib, ulardan 1 626 tasi narkotik moddalarni o'tkazish-sotish, 171 tasi kontrabanda, 1 238 tasi giyohvand o'simliklarini yetishtirish, 66 tasi bangixonalar tashkil etish bilan bog'liq.

Tadbirding ikkinchi qismida tezkor guruh xodimlari yig'ilganlarga giyohvand moddalarni aniqlash jarayonini ko'rsatib berdi. Shundan so'ng ishtirokchilar ko'z o'ngida 7 kg 757 gr heroin, 195 kg 415 gr opiy, 56 kg 140 gr gashish, 557 kg 398 gr marixuana, 130 kg 18 gr ko'knor, 80 kg 920 gr kannabis, 263 gr sintetik narkotik vositalari hamda turli psixotrop va psixofaol moddalar yoqib yuborildi.

— Har yili “Giyohvandlikka qarshi kurash oyligi” doirasida o'tkazib ke linayotgan ushbu tadbir jahondagi umumiy muammolardan biri — narkotik moddalarga qarshi kurashishning bir qismiga aylanayotgani quvonarli hol, — deydi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazi bo'lim boshlig'i Shuhratjon G'ulomov. — Bu orqali mamlakatimiz BMTning narkotik moddalar bilan bog'liq barcha — 1961-, 1971-, 1988-yillardagi konvensiyalarini ratifikatsiya qilgan davlat sifatida jahon hamjamiyati oldidagi burchini ado etmoqda. Zero, narkotik moddalar bir yoki bir necha xalqning emas, balki butun insoniyatning dushmanidir va biz unga qarshi birgalikda kurashishimiz lozim.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi giyohvand moddalarning tarqalishi va ular ustidan nazorat o'rnatish borasida o'ziga yuklatilgan xalqaro majburiyatlarni muntazam bajarib kelmoqda. Bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishda, ayniqsa, mutasaddi idora va tashkilotlar vakillarining malakasi hamda professional ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar va xalqaro hamkorlik muhim o'rin tutmoqda.

Iroda TOSHMATOVA,
“Ma'rifat” muxbiri



Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi

sanoatdagi muammolar yechimiga qaratilyapti

Keyingi yillari oliy o'quv yurtlariga qabulda test jarayonini tashkil etish borasidagi xayrli o'zgarishlar, maxsus sirtqi va sirtqi oliy ta'limning joriy etilishi, hududlarda oliy o'quv yurtlari filiallarining ochilishi yoshlarimizning ta'lim olish huquqlarini yanada kengaytirishga xizmat qildi. Joriy yilning o'zida Navoiy davlat konchilik instituti Nukus filialining ham ochilishi mo'ljallanmoqda. Bu yil mamlakatimizda bitiruvchilarni oliy ta'limga qamrab olish darajasini 20 foizga yetkazish va kelgusi yillarda oshirib borish ko'zda tutilmoqda.



Yoshlarimizga bir vaqtning o'zida bir nechta oliy o'quv yurtiga hujjat topshirish imkoniyatining berilishi, oliy ta'lim muassasalariga real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda qabul kvotalarini mustaqil belgilash ixtiyorining berilishi, bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga xorijda o'qishni davom ettirish imkoniyatining kengayotgani yurtimizda oliy ta'limotga ega, yuksak malakali mutaxassislarining ko'payishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimizning 2018-yil 16-iyuldagi "Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori innovatsion loyihalar hamda ishlanmalarni amaliyotga jadal joriy etish, mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini kuchaytirishda ilm-fanning hissasini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu qaror iqtisodiyotimizning ko'plab yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan ilmfan xodimlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash orqali yangi tadqiqotlarni moliyalashtirish, eng asosiysi, ularni hayotga tatbiq etish jarayonining aniq mexanizmlarini belgilab berdi.

Institutimizda bu boradagi faoliyat ikki yo'nalishda amalga oshirilmoqda. Birinchisi, xalqaro patentlar olish, ikkinchisi, jahonning nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda xalqaro grant loyihalar va dasturlarda ishtirok etish orqali investitsiyalarni jalb etish ko'zda tutilyapti. Xususan, kafedralar mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan muqobil energiya manbalarini qo'llash asosida energiya samarador issiqxonalar yaratish borasidagi ishlanmalari-mizga Rossiya Federatsiyasi patentini olish taraddudidamiz.

Navoiy davlat konchilik institutida kadrlar tayyorlash va

hamkorlikda ilmiy texnik yechimlar ishlab chiqishda korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida institutda 8 ta innovatsion guruh tashkil etilgan. Bu guruhlar va 14 ta ishlab chiqarish korxonasi o'rtasida innovatsion hamkorlik shartnomalari tuzilgan. Hamkorlik institutda tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, texnopark va korxonalar negizida tashkil etilgan kafedralar filiallarida amalga oshirilmoqda. Institutning 8 ta mutaxassislik kafedrasining Navoiy kon-metallurgiya kombinati negizidagi Navoiy mashinasozlik zavodi, Markaziy kon boshqarmasi, Shimoliy kon boshqarmasi, 1-gidrometallurgiya zavodi hamda "Navoiyazot", "Elektrokimyozavod", Navoiy issiqlik elektr stansiyasi kabi aksiyadorlik jamiyatlarida filiallari mavjud. Innovatsion guruhlariga institutning 94 nafar professor-o'qituvchisi, 24 nafar korxona vakili, 7 nafar doktorant, 32 nafar magistr, 80 nafar iqtidorli talaba jalb etilgan.

2018-yil davomida institut olimlaridan 3 nafari fan doktori hamda 10 nafari falsafa doktori dissertatsiyalari yoqladi. Shu yilning birinchi choragida 1 ta fan doktori va 2 ta falsafa doktori dissertatsiyalari himoya qilindi.

Institutning "Kimyoviy texnologiya", "Metallurgiya", "Avtomatlashtirish va boshqaruv", "Elektr energetikasi", "Mashinasozlik texnologiyasi va kon elektromexanikasi" kafedralari bazasida "Fizik-kimyoviy tahlil", "Mexatronika" va "Kon mexanizmlari diagnostikasi" ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari tashkil etilgan.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati tasarrufidagi korxonalar bilan 10 ta xo'jalik shartnomasi asosida ilmiy ishlar olib borilmoqda. Mazkur shartnomalar bo'yicha shu kunga qadar institut tomonidan 324 mln so'mlik ish bajarildi.

Xitoyning "China National Chemical Engineering No.7 Construction Co., LTD" kompaniyasi bilan umumiy qiymati 100 million so'm qiymatidagi laboratoriya-sinov testlarini o'tkazish bo'yicha shartnoma tuzilib, shu kunga qadar 17 million so'mlik ish uddalandi.

Institut ilmiy salohiyatini mustahkamlash hamda ilmiy-tadqiqot sohasida hamkorlik va aloqalarni yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarmoq institutlari, O'zFA Navoiy bo'limi, Umumiy noorganik kimyo instituti, Yadro fizikasi instituti, O'zbekiston Milliy universiteti va boshqa yetakchi oliy o'quv yurtlari bilan tuzilgan shartnomalar asosida qator ishlar amalga oshirildi.

Ilg'or texnologik sohada pedagog kadrlar malakasini bevosita ishlab chiqarish jarayonida oshirib borish hamda ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kafedrada yillik malaka oshirish rejasini mavjud. Korxonalar muammolari asosida 225 ta ilmiy-tadqiqot mavzusi bazasi shakllantirilgan. Mazkur mavzular bo'yicha 76 ta dissertatsiya ishi bajarilmoqda. Ilmiy izlanishlar asosan mineral xomashyolarni ochiq va yerosti usulida qazib olishni optimallashtirish, kamyob va nodir metallarni ajratish, uranni ishqorlash, fosforit ma'danlarini boyitish texnologiyalarini takomillashtirish, kon-metallurgiya va kimyoviy ishlab chiqarish tizimlarini avtomatlashtirish sohalar bo'yicha olib borilyapti. Hamkorlik o'rnatilgan korxona va tashkilotlarning ilmiy-texnik muammolari asosida ilmiy-tadqiqot mavzulari bazasi shakllantirilgan bo'lib, innovatsion guruhlar tomonidan ular yechimiga qaratilgan 73 ta kurs ishi, 54 ta bitiruv-malakaviy ish, 34 ta magistrlik dissertatsiyasi tadqiqotlari olib borilmoqda.

So'nggi uch yilda institut olimlari va tadqiqotchilari tomonidan 11 ta ixtiro uchun patent olindi. 2017-yili institut olimlaridan Q.Sanaqulov, A.Hasanovning "Method of Extracting Gold from Persistent Sulphide Godmine Ore" nomli patenti Butunjahon Intelktual mulk tashkilotining oltin medali bilan taqdirlangan.

"Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 2026-yilgacha innovatsion rivojlantirish dasturi" bo'yicha Navoiy davlat konchilik instituti olimlari tomonidan 6 mlrd 410 mln so'mlik 32 ta loyiha amalga oshirildi.

To'lg'in NURMURODOV,
Navoiy davlat konchilik institutining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Abituriyent — 2019

Bu yil maxsus sirtqiga qabul bo'lmaydimi?

(Davomi 1-betda.)

Sirtqi va maxsus sirtqida kimlar o'qishi mumkin?

Sirtqi shaklda asosan umumiy o'rta (10-11-sinflar negizida), o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumoti to'g'risidagi tegishli hujjatga ega bo'lgan yoshlar o'qish imkoniyatiga ega. Sirtqi ta'limning maxsus sirtqi ta'lim shaklidan farqi shuki, sirtqi ta'limda 3 yoki 5 yillik ish staji kerak emas. Yana bir farqi — sirtqi shaklda tahsil olish davomiyligi kamida 5 yil, maxsus sirtqida o'qish esa 3 yilni tashkil qilgan. Shuningdek, sirtqi ta'lim shaklida o'qish istagida bo'lganlardan tegishli tashkilotlar tomonidan tavsiyanoma ham talab etilmaydi. Maxsus sirtqiga esa faqat tegishli yoki turdosh ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga va ta'lim yo'nalishiga mos soha, kasb va lavozimlarda kamida uch yillik amaliy ish stajiga ega bo'lganlar hujjat topshirishi mumkin edi. Shuningdek, ulardan tegishli vazirlik va idoralar tomonidan berilgan tavsiyanoma bilan birga, test sinovlari, kirish imtihonlari yoki kasbiy suhbatdan muvaffaqiyatli o'tish ham talab qilingan.

Bu yil biroz boshqacha

— Bu yil oliy ta'lim muassasalarining maxsus sirtqi bo'limi uchun kvotalar tasdiqlanmaganiga 2019-2020-o'quv yilidan OTMlarning vakolati kengaytirilib, ularga yirik ishlab chiqarish subyektlari va tashkilotlar bilan hamkorlikda kadrlarni tayyorlash huquqi berilgani sabab bo'ldi, — deydi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi matbuot kotibi Bahridin Shayvaliyev. — Davlat buyurtmasi parametrlari doirasida OTMlarning sirtqi va kechki ta'lim shaklida o'qitishning to'lov-kontrakt qiymati tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kunduzgi o'qitish shakli uchun belgilangan to'lov-kontrakt qiymatidan ko'p bo'lmagan miqdorda belgilanishi ham ko'zda tutilgan. Shuningdek, endilikda, OTMlar vazirlik, idora va yirik xo'jalik birlashmalarining ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularning tavsiyanomasi asosida xodimlarini kunduzgi ta'lim shaklining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga mos yo'nalishlar doirasida tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida sirtqi va kechki ta'lim shaklida o'qitish imkoniyatiga ega. Ya'ni, o'qishga tegishli ish beruvchilarning tavsiyasi asosida kamida besh yil ish stajiga ega bo'lgan xodimlar qabul qilinadi. Ular keyinchalik ushbu tizimda besh yil ishlab berish sharti bilan ish faoliyatiga mos bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga kirishi mumkin.

Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo'lgan fuqarolarni sirtqi va kechki ta'lim shakliga suhbat natijalariga ko'ra tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish tartibi hamda xodimlarini o'qishga tavsiya etish huquqiga ega bo'lgan vazirlik, idora va yirik xo'jalik birlashmalarining ro'yxati Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi. Ana shu ro'yxatda mavjud tashkilotlarning tavsiyanomalari asosida xodimlar suhbat asosida o'qishga qabul qilinadi, ro'yxatda mavjud bo'lmagan har qanday tashkilotlarning tavsiyanomalari bundan mustasno.

Sirtqi ta'lim shakliga hujjat topshirmoqchi bo'lganlar bu yilgi yangi tizim bo'yicha uchta OTMdagi yo'nalishlarni tanlash huquqiga ega. Faqat uchalasining ham ta'lim shakli sirtqi bo'lishi lozim. Sirtqi ta'limga hujjatlar 1-iyuldan 30-iyulgacha qabul qilinadi. Kirish imtihonlari esa 16-avgustdan 25-avgustgacha kamida 3 ta fandan o'tkaziladi.

Fayoza AVLAYEVA,
"Marifat" muxbiri

To‘rt muammoli harf

O‘tgan yilning 15-mayida tasdiqlangan “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini keng joriy etish va yanada takomillashtirish bo‘yicha Harakatlar rejası”da belgilangan chora-tadbirlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida tuzilgan ishchi guruhning xulosalari haqida ba‘zi mulohazalar paydo bo‘ldi.

Yaqinda *Kun.uz* sayti va “Ma‘naviy hayot” jurnalida ishchi guruhning xulosalariga asosan “Eng kamida, alifbodagi to‘rtta muammoli harfni isloh qilishimiz shart” deyilgani, “Muammoli harflar” deganda esa alifbomizdagi *G‘, O‘* harflari va *Sh, Ch* harfiy birliklari nazarda tiliyotgani bugun hech kimga sir emas”ligi qayd etiladi.

O‘ va *G‘* hamda *Sh, Ch* harflari uchun yechim topilgan. Birinchi ikki harf uchun mazkur harflar ustiga ust diakritik belgi qo‘yish bilan, ya‘ni *Ó / Ğ* shaklida to‘g‘ri hal qilingan. Ikkinchi ikki harf uchun mazkur harflar ostiga ost diakritik belgi qo‘yish bilan, ya‘ni *Ș / Ç* shaklida to‘g‘ri hal etilgan.

Odatda alifbo yaratilayotganda qaysi tovushga qaysi harfini olish haqida gap ketadi. Loyihaning IV qismi qaysi harfiga qaysi tovush olinishi haqidir. Lekin bu qismda ikki masala o‘zaro qorishtirib yuborilgan. Ya‘ni shu qismning ba‘zi bandlarida *Cc* tovushini alifboga olish kerak deyilsa, ba‘zi bandlarida esa *Cc* ni *ʻ* tovushi uchun olish kerak deyiladi. Mazkur qismda shunday jumlarlar bor: “*Cc* ni yoqlovchilar bu harf alifbomizda mavjud bo‘lmagani bilan ma‘naviy-ma‘rifiy, ilmiy-ijtimoiy hayotimizda baribir ishtirok etyapti. Masalan, *pasport seriyasi, test savolnomasi, avtomashina raqamlari* kabi ro‘yxat bandlarini alifbo asosida tartiblashda va boshqa holatlarda *Cc* harfidan foydalanyapmiz, shuning uchun bu harfini alifboga qabul qilishimiz shart”. Axir harf tildagi biror tovushni ifodalash uchun qabul etiladi-ku! Yuqoridagi keltirilgan ko‘chirmada *Cc* ning qaysi tovush uchun olinishi haqida hech qanday gap yo‘q. Qolaversa, “pasport seriyasi, test savolnomasi, avtomashina raqamlari kabi ro‘yxat bandlarini alifbo asosida tartiblashda va boshqa holatlarda” *Cc* harfidan emas, balki yangi alifbodagi kerakli harflardan foydalaniladi. Yana mazkur qismda shunday davom etadi: “*Cc* ni yoqlovechilarning aksariyati bu belgidan kirill alifbosidagi *Цц* tovushini ifodalash uchun foydalanaylik, deyishadi va o‘z qarashlarini asoslash uchun qator dalillar keltiradi”. Mana endi maqsad aniqlashyapti. Ishchi guruh a‘zolari o‘zbek tilida mutlaqo yo‘q bo‘lgan, rus tiliga xos bo‘lgan *Цц* tovushi uchun *Cc* harfini qabul qilishmoqchi.

Ajnabi *Цц* tovushi uchun *Cc* harfini olish haqida oltita dalil keltiriladi:

“1) til jonli hodisa sifatida muntazam rivojlanadi: o‘tgan asrda tilimizga chet tillar, xususan, rus tili orqali *ʻ* harfi qatnashgan juda ko‘p o‘zlashma so‘zlar kirib keldi — *s* harfi yoki *t* birlikmasi esa bu tovushni hamisha ham to‘la aks ettirmaydi”, deyiladi. Ammo to‘la aks ettirmaslik sababi haqida yozilmaydi. Bizningcha, to‘la aks ettiradi. Hatto 1917-yilgacha qa-

bul qilingan *ʻ* li so‘zlar *ʻ* bilan emas, *ch* bilan yozilgan. Masalan, *chor(чоръ), chorizm(yapuzm), cherkov(церковь)* kabilar.

“2) xalqaro tabiatga ega bo‘lgan so‘zlar, xususan, ko‘p ilmiy-tibbiy atamalarda *Cc* harfi juda faol ishtirok etadi.” Bu yerda tibbiy istilohlar haqida gap bormoqda. Ma‘lumki, *Ss* harfi ishtirok etadigan tibbiyot terminlari lotin tiliga oid. Agar bunday terminlar chet tillarga oid so‘z bo‘lsa, ular, albatta, o‘zbek tiliga transliteratsiya qilinadi.

“3) o‘zga millat vakillarining ism-familiyasidagi *ʻ* tovushini to‘g‘ri aks ettirish imkoniyati yo‘qligi bois muayyan noqulaylik, chalkashliklar yuzaga kelmoqda. Masalan: *Цой — Soy, Цукрапудзе — Siskaridze*” — “O‘zga millat ism-familiyasidagi *ʻ* tovushini to‘g‘ri aks ettirish imkoniyati yo‘qligi” deyiladi, ammo *Цой — Soy, Цукрапудзе — Siskaridze* tarzida to‘g‘ri aks ettirilyapti-ku! Imkoniyati bor ekan-ku! O‘zga millat tilidagi spetsifik tovushlarni qabul qiluvchi tilda yuz foiz to‘g‘ri aks ettirishning imkoniyati yo‘q ...

Shuni eslash lozimki, 1929-yili arab yozuvidan lotin yozuviga o‘tilganda faqat arab tiliga xos bo‘lgan sakkizta harfdan (ث ح ذ ص ض ط ظ ع) voz kechildi. Arab yozuviga asoslangan eski alifbomizda to‘rtta z (ز) bor edi. Shularning hammasi uchun faqat bitta z harfi qabul qilindi. Eski yozuvimizda z ظ ح ذ ص ث li so‘zlar, masalan, ظلم — *zolim*, ظامن — *zomin*, ذات — *zot* kabi juda ko‘plab so‘zlar tilimizga mos holda oddiy z harfi bilan yoziladigan bo‘ldi. Mashhur choriyorlarimizning (خدر — Usmon, عمر — Umar, علي — Ali) ismlaridagi undosh tovush hisoblangan “ayn” o‘zbek tiliga “u”, “a” bilan transliteratsiya qilindi. Chunki bizda “ayn” tovushi yo‘q bo‘lgani sababli, shuningdek, bu tovushning artikulyatsion parametri tilimiz fonetik tizimiga mos bo‘lmaganligi tufayli ushbu undosh fonema unli fonemani ifodalovchi harf bilan berildi. Hatto rus tilida *s* harfi bo‘lishiga qaramay, lotin tiliga oid *s* *ʻ* harfi bilan beriladi: masalan, *circus — цирк, caementum — цемент, concerto — концерт, lyceum — лицей* kabi. Demak, har bir xalq boshqa tildan so‘z olganda u so‘zlarni va so‘zlardagi tovushlarni o‘z tiliga moslab o‘zlashtiradi.

“4) qadimiy lotin tiliga mansub bo‘lgan *ʻ* harfi ko‘p so‘zlar aslyatida ham *Ss* harfi bilan yozilgan. Masalan, *sirk(circus), sement(caementum), konsert(concerto), litsey(lyceum)* va hokazo. Va bugun ham lotin alifboli ko‘p xalqlar bo‘zlamni aslyatga muvofiq yoki yaqin tarzda yozadi”. Ushbu jumla biroz g‘aliz tuzilgan. Mazkur gapda qadimgi lotin tilida (qadimiy lotin tili deyishga hojat yo‘q, chunki lotin tili eski o‘lik til — *B.Y.*) *ʻ* harfi so‘zlar bo‘lgan, degan ma‘no kelib chiqyapti. Vaholanki, qadimgi lotin tilida *ʻ* tovushi bo‘lmagan.

Bu yerda rus tilidagi *ʻ* harfi qatnashgan ko‘p so‘zlar lotin tilida *Ss* harfi bilan yozilgan, deyilsa to‘g‘ri bo‘ladi.

“5) dunyodagi ko‘p xalqlar alifbosiga faqat o‘zlashma so‘zlar uchun maxsus harflar kiritilgan. Masalan, venger alifbosida *Q.W.X.Y* harflari.” Bu bandda “ko‘p xalqlar alifbosi”, deyiladi, ammo faqat bitta venger xalqi alifbosi misol keltiriladi. Venger tili bor-yo‘g‘i o‘n millionli venger aholisining tili bo‘lib, bizga notanish, uzoq bir til. Shuning uchun bizga vengerlar alifbosi namuna bo‘la olmaydi.

“6) alifboga *Cc (ʻ)* harfining kiritilishi kirill yozuviga o‘rganib qolgan katta avlod vakillarining ham lotin yozuviga tezroq moslashib ketishiga, rasmiy alifbomizning keng qo‘llanilishiga zamin yaratadi”. Katta avlod vakillarining kirill yozuviga o‘rganib qolgani to‘g‘ri, lekin katta avlod vakillari *ʻ* tovushini sakson yil davomida hech o‘zlashtira olmadi, biz uchun begona bo‘lgan mazkur tovush tilimizga singmadi. U tilimiz fonemalari tarkibidan o‘rin ololmadi, chunki *ʻ* ning fonologik parametrlari butunlay boshqacha. Sun‘iy ravishda kirill asosli o‘zbek alifbosiga kiritilgan, ammo sakson yil davomida tilimizga o‘zlashmagan, o‘zbeklar talaffuz qila olmaydigan *ʻ* tovushini yangi lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga kiritishga mantiqli bir asos ham, zarurat ham yo‘q. O‘zbek tilida mavjud bo‘lgan va milliy boyligimiz hisoblangan *ng* tovushiga yaxlit bir harf o‘lmagan, tilimizda bo‘lmagan, ajnabi bir tilga xos bo‘lgan “*ʻ*” tovushiga alohida bir belgi olish mantiqqa ziddir. Bu paradoks.

ng tovushi. Ishchi guruh xulosasida “Bu tovushga arab alifbosida ham, kirill o‘zbek alifbosida ham, amaldagi lotin alifbosida ham yaxlit harf ajratilmagan” deyiladi. Shuni ta‘kidlash lozimki, arab yozuvida *ng* tovushi uchun yaxlit harf ك g shaklida ajratilgan. O‘zbeklarning, umuman, turkiy xalqlarning o‘z yozuvi hisoblangan O‘rxun-Enasoy yozuvida ham mazkur tovush uchun yaxlit harf belgilangan. “Kirill imlosiga ko‘ra qaysi so‘zda *N* va *G* harflari yonma-yon kelgan bo‘lsa, yoppasiga *Nn* harfi bilan yozila boshladi. Masalan: *tana, mamu*. Aslida, bu so‘zda *g N* va *G* harflari *N* tarzida yoziladigan bo‘lsa, qo‘shimcha *G* harfi orttirilishi kerak, shunda talaffuz to‘g‘ri bo‘ladi: *taña, mañu*”, deb izohlashadi. Shuni alohida uqtirish lozimki, ko‘pchilik olimlarning e‘tirof etishicha, *ng(ʻ)* tovushining tabiiy, *ng(ʻ)*dan keyin qachon *g* harfi orttirilishi, talaffuz va imlo xususiyatlari hali yaxshi o‘rganilmagan. Shuning uchun bu masalalar maxsus tadqiq etilishi kerak. “1993-yilda qabul qilingan lotin-o‘zbek alifbosida bu tovush ilk bor *Nn* harfi bilan ifodalandi-yu, 1995-yilda yana undan voz kechildi. Sababi, *Nn* harfini idrok etishda ko‘pchilik chalg‘idi”, deyiladi. Birinchidan, mazkur tovush ilk bor 1993-yilda jumla biroz g‘aliz tuzilgan. Mazkur gapda qadimgi lotin tilida (qadimiy lotin tili deyishga hojat yo‘q, chunki lotin tili eski o‘lik til — *B.Y.*) *ʻ* harfi so‘zlar bo‘lgan, degan ma‘no kelib chiqyapti. Vaholanki, qadimgi lotin tilida *ʻ* tovushi bo‘lmagan.

dan hamma birdaniga zo‘r, xatosiz yozadigan bo‘lib qolmaydi. Buning uchun yangi o‘zbek alifbosi va imlo qoidalari yaxshi o‘rgatilishi, darslar saviyasi o‘tilishi kerak.

Ushbu qismning oxirida “Qolaversa tilimizda ba‘zi so‘zlarda uchraydigan *ngʻ* tovushiga (*qo‘ng‘ir, qo‘ng‘iz, to‘ng‘iz, qing‘ir, o‘ng‘ay*) ham alifbomizda harf ajratilmagan”, deyiladi. Birinchidan, tilimizda *ngʻ* tovushi yo‘q. Faqat ikki xil *ng(ʻ)* tovushi bor. Biri *teng, ong, tong* kabi so‘zlardagi *ingichka, nazal(burun)* tovushi bo‘lsa, ikkinchisi *gʻo‘ng, g‘ing* kabi so‘zlarda uchraydigan yo‘g‘on *ng(ʻ)* dir. Ikkinchidan, misol sifatida keltirilgan beshta so‘zdan faqat bittasi *to‘ng‘iz “to‘ng‘iz”* kabi talaffuz etiladi. *Qo‘ng‘ir, qo‘ng‘iz, qing‘ir, o‘ng‘ay* so‘zlari *qo‘ng‘ir, qo‘ng‘iz, qing‘ir, o‘ng‘ay* kabi (*yo‘g‘on, qalin*) *ng* tovushisiz talaffuz etiladi. Buni “O‘zbek tili talaffuz lug‘ati”dan ko‘rish mumkin.

O‘tgan asrning 70-yillaridan beri *ng* tovushiga yaxlit bir harf olinishi kerakligi haqida yozilmoqda. Biz ham tilimizdagi faol, ko‘p qo‘llanadigan ushbu tovush yaxlit, muayyan harf bilan ifodalaniishi lozim, deb hisoblaymiz. Chunki mazkur fonema, yuqorida aytilganidek, O‘rxun-Enasoy va arab hamda 1993-yilgi lotin asosli o‘zbek alifbosida yaxlit, bir harf bilan berilgan. Boshqird, uyg‘ur, qozoq, tatar, qirg‘iz, turkman kabi ko‘pchilik *ng(ʻ)* tovushi bor bo‘lgan turkiy tillar alifbolarida bu tovushga yaxlit bir harf ajratilgan. Alohida ta‘kidlash lozimki, mazkur fonema *ng* shaklida ikki harf orqali ifodalanganda, talaffuzda ko‘pol xatolar tez-tez uchramoqda. Masalan, *ayting, o‘zing, oling, mening, so‘ng, o‘ng* kabi so‘zlardagi *ng* ni bitta yaxlit tovush sifatida emas, balki ushbu so‘zlardagi *n* va *g* harflarini alohida-alohida *n, g* tarzida talaffuz qilish avj olmoqda. Bitta mustaqil fonemaning ikki belgi bilan ifodalaniishi ko‘p chalkashliklarga olib kelmoqda. Il shaxs hurmat shakli *ngizga* bir *g* orttirilib, *onanggiz, otanggiz, qizanggiz, darslaringgiz* shaklida buzib talaffuz etilmoqda. Ba‘zi vatandoshlarimiz *ng* ni ikkita tovush deb o‘ylab, *kelingni kelingk, boringni boringk, o‘qingni o‘qingk* deb talaffuz qilmoqda. Bizning xulosamiz: *ng* tovushi uchun yaxlit harf olinishi kerak. Buning uchun *n* harfining ostiga bir diakritik belgi qo‘yilsa (*ʻ*) ki-foya. 1929-yili qabul qilingan lotin alifbosiga asoslangan alifbomizda ham *ng* fonemasi uchun xuddi shu harf olingan edi.

Spetsifik fonema uchun spetsifik harfning yo‘qligi milliy alifboning asosiy kamchiligi hisoblanadi. Har bir tovush uchun bir harf va har bir harf uchun bir tovush prinsipiga amal qilinsagina alifbomiz mukammal bo‘ladi. Kirill yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida “*ʻ*” tovushi uchun lotin asosli yangi alifboga o‘ belgisini emas, balki o‘n olish lozim. Chunki lablangan, til orqa, qattiq bu fonema barcha turkiy tillarda, rus va boshqa tillarda ham o harfi bilan berilgan. Unifikatsiya uchun o‘zbek alif-

bosiga ham kirildagi *ʻ* uchun shu harf (*ʻ*) olinishi kerak. Afsuski, bu yangi lotin asosli o‘zbek alifbosi loyihasida *o* harfi ikki vazifani bajaradi. U o‘zbek tiliga xos bo‘lgan, boshqa turkiy tillarda uchramaydigan, kelib chiqishi bahsli til orqa, keng, lablanmagan (*bor, kor, zor* kabi so‘zlardagi) *o* ni va rus tilidan o‘zlashgan *tok, organ, orden, opera, optika* kabi so‘zlarda uchraydigan o fonemalarini ifodalaydi. *O* va *oʻ* tovushlari uchun kirill alifbomizda lablanganiga *ʻ*, lablanmaganiga *o* belgisi olingandi. Chalkashlik o‘shandan boshlangan edi. Barcha turkiy tillarda uchraydigan lablangan fonema uchun *o* harfi belgilangani holda negadir o‘zbek tilidagi mazkur fonemaga *ʻ* olingan. Kimdir, kimlardir o‘zbek alifbosi boshqa turkiy xalqlar alifbosidan farqli bo‘lishiga sa‘y-harakat qilganga o‘xshaydi...

Ko‘rinib turganidek, oldingi kirill alifbosida ham, hozirgi lotingaga asoslangan alifbo loyihasida ham bu ikki fonemaga harflar noto‘g‘ri belgilangan. Buning oqibatida o‘zbekning o li so‘zlarini boshqa turkiy xalqlar, umuman, alifbosida *o* harfi bor xalqlar noto‘g‘ri o‘qishadi. Hozir boshqa turkiy xalqlar o‘zbekning *boş(bosh)* so‘zini *boş(bo‘sh), oq(oq)* so‘zini *oq(o‘q), ot(ot)* so‘zini *ot(o‘t), qoşiq(qoşhiq)* so‘zini *qoşiq(qo‘shiq)* deb o‘qiydilar.

Bizning xulosasi: lablangan, o‘rta keng unli (kirilchada *ʻ*) uchun boshqa turkiy tillar va alifbolarida mavjud o ni yangi lotin asosli o‘zbek alifbosiga olish lozim. Faqat o‘zbek tiliga xos bo‘lgan keng, lablanmagan, hozirgi lotin yozuvimizdagi o uchun a belgisini olish kerak. Ana shundagina alifbomiz boshqa turkiy xalqlar alifbolariga yaqinlashadi. Ruslar va ko‘pgina yevropaliklar ham so‘zlarimizni to‘g‘ri talaffuz etishadi, tushunmovchiliklar kamayadi.

2018-yil 22-oktabrda bo‘lib o‘tgan konferensiya ishtirokchilarining muayyan guruhi singarmonizm hisobga olinishi, *l* va *li, Öd* va *Öd, Uu* va *Üü* harflari yangi alifboga kiritilishi lozimligini, bu bilan alifboni tubdan isloh qilish va mukammal alifboga ega bo‘lish kerakligini yoqlab chiqdilar. Ammo ishchi guruh a‘zolari bu taklifni qabul qilmagan. Bunga sabab qilib ular quyidagilarni keltirishadi:

“1. Hozirgi unli harflar har bir lahjaga muayyan erkinlik beradi: so‘zlardagi *i, u, o* tovushlarini har bir lahja o‘ziga moslab talaffuz qiladi. Shu bois haqli savol tug‘iladi: alifbo faqat tovushlarni imkon qadar to‘la aks ettirishi, shu bilan birga, milliy yaxlitlik, birlikni mustahkamlashga xizmat qilishi shart emasmi?”. Yuqoridagi keltirilgan fikrlarga qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki o‘zbek adabiy tilidagi *i, u, o* tovushlarini har bir lahja(vakili) o‘ziga moslab gapirishi mumkin emas. Butun millat vakillari mazkur tovushlarni “o‘ziga moslab emas”, balki bir xil talaffuz etishi lozim. Ana shundagina alifbo milliy yaxlitlik, birlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Qolaversa, orfografiya milliy adabiy til uchun yagona talaffuz normalari bo‘lishini taqozo etadi.

“2. Ishchi guruh a‘zolari bugungi kunda *x* va *h* ni farqlashga qiynalayotgan

hamyurtlarimiz qattiq va yumshoq *oʻ, u, i* ni farqlashda jiddiy muammolarga duch kelib, natijada aholining savodxonligi keskin pasayib ketmaydimi?..

Milliy alifbomiz murakkablashadigan bo‘lsa, o‘z savodxonligiga ishonmaydigan ko‘p ota-onalar farzandlarini o‘zbek maktablariga emas, boshqa tildagi maktablarga berishni ma‘qul ko‘rishi mumkin. Bu hol ona tilimizning mavqeyiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydimi?” deb yozishadi.

Agar *a, ä, i, i, u, ü, o, ö* harflari qabul qilinsa, milliy alifbomiz murakkablashmaydi, balki osonlashadi, tilimizdagi tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qiladigan bo‘lamiz. Boshqa turkiy xalqlar alifbolarida mazkur tovushlar bor-ku! Nega ularning milliy alifbolari murakkablashmagan?! Ota-onalar farzandlarini milliy alifbo murakkab bo‘lgani uchun boshqa tildagi maktablarga bermagan. Buning sababi boshqa. Chunki kirill alifbosi zamonida ham ota-onalar boshqa tildagi maktablarga berishardi-ku, hozir ham berishyapti! Hozir ko‘chadagi yozuvlarning ko‘pi joriy alifboda emas, balki boshqa tildagi alifboda yozilmoqda. Demak ona tilimizning mavqeyiga butun turk tillariga xos bo‘lgan *a, ä, i, i, u, ü, o, ö* harflari emas, balki boshqa omillar salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘zbek tili — turkiy til. Demak, turkiy tillarga xos bo‘lgan qonuniyatlar unga ham xos. Mana, sakson besh yildan beri o‘zbek tili alifbosida yumshoq-qattqlik aks etmayapti. Juft unlihar faqat *a, i, u, o* harflari bilan ifodalanyapti, ularning juftlari maxsus harflar bilan berilmayapti. Endi o‘zlikka qaytish payti keldi. O‘zbek tilida o‘nta unli fonema bor. Ularning har biriga bittadan harf ajratish kerak.

Turklar 1928-yili lotin asosli alifboni qabul qildilar. O‘shandan buyon uni hech o‘zgartirmadilar. Biz esa lotin yozuviga asoslangan alifboni 1929-yili qabul qilganmiz. Uni 1934-yili o‘zgartirdik. 1940-yili kirill alifbosiga o‘tdik. Hozir yana lotin asosli alifboga qaytmoqdamiz. Bu orada alifboga bir nechta bor mayda-chuyda o‘zgartirishlar ham kiritildi. Mustaqillik davrida bir necha bor lotin asosli alifbo loyihasi e‘lon qilindi... Xullas, harf o‘zgartirishdan boshimiz chiqmay qoldi. Zora, bu safar ko‘ngildagidek alifboga ega bo‘lsak... Buning uchun, albatta, shoshmasdan, har taraflama o‘ylab, yetti o‘lchab, bir kesib ish qilishimiz kerak.

Yangi lotin yozuviga asoslangan eng so‘nggi o‘zbek alifbosi loyihasining asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat:

- o‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lmagan, uning xususiyatlariga to‘g‘ri kelmaydigan harf (*ʻ*) tovushi uchun harf olingan;
- bitta tovush ikki harf (*ng*) bilan ifodalangan;
- ikki tovush bir harf (*o*) bilan berilgan;
- yangi alifboga juft unlihar — *a, ä, i, u, ü, o, ö* fonemalarini ifodalovchi harflar kiritilmagan.

Berdak YUSUF,
filologiya fanlari nomzodi,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti xodimi

Matnlarni tahrirlovchi dastur o‘zbek tili uchun nechog‘lik zarur?

Jahon tilshunosligida XX asrning 50-yillaridan til va matn muammolari bilan bog‘liq masalalarni kompyuter texnologiyalari yordamida hal qilish tadqiqi bilan nafaqat tilshunoslar, balki boshqa soha olimlari ham shug‘ullanib kelmoqda. Shunday bo‘lsa-da, mazkur masalalar har qanday matnni lisoniy o‘rganishning yangi-yangi imkoniyatlari til materialini axborot texnologiyalari dasturlari orqali tanlash va uni qayta ishlash jarayonini muayyan darajada tezlashtirish, katta hajmdagi matnlarni lingvistik tahlil qiluvchi texnologiyalar hamda axborotni qayta ishlovchi dasturlar va ularning lingvistik ta‘minotlarining ishlab chiqilishiga zamin yaratmoqda.

O‘zbek tilshunosligi sohasida XXI asrning boshlarida kompyuterdan foydalani- nish natijasida yangi, zamonaviy yo‘nalish bo‘lmish kompyuter lingvistikasi yuzaga keldi. Kompyuter lingvistikasi kursining universitetlarda o‘quv jarayoniga joriy qilinishi bugungi globallashuv, optimal- lashuv va standartlashuv davrida tilning ijtimoiy ahamiyatiga e‘tibor oshganligidan dalolat. Kompyuter lingvistikasida matn- larni tahrirlovchi va tahlil qiluvchi dastur- lar, nutqiy sintezator, mashina tarjimai, matnlarni referatlash, matn korpusi, matn- larni lingvostatistik tahlil qiluvchi kabi yo‘nalishlardagi tadqiqotlar tilshunoslikda katta hajmli lingvistik bazalarning yaratili- shiga omil bo‘lib xizmat qiladi.

Kompyuter lingvistikasi an‘anaviy tilshunoslikka tayanib ish ko‘radi. Uni amaliy jihatdan boyitadi. Ba‘zi hollarda an‘anaviy tilshunoslikni inkor etadi (ko‘p ma‘nolilik, omonim so‘zlarni inkor qiladi). An‘anaviy tilshunoslik tabiiy til qonuniyat- lari asosida ishlaydi. Kompyuter lingvisti- kasi esa sun‘iy til qonuniyatlariga bo‘ysu- nadi. Sun‘iy til dasturlash tilidir (BASIC, PASCAL, C++ va hokazo). Tilshunoslik tarixida 1897-yili butun dunyo xalqlarini birlashtirish va hech bir davlat manfaatini ko‘zlamagan holda yagona muloqot vosi- tasini vujudga keltirish maqsadida birinchi bo‘lib shifokor L.Zamengo tomonidan esperanto tili yaratilgan. Kompyuter ling- vistikasida esperanto tilining ahamiyati shundaki, aniq lingvistik me‘yorlarga asos- langan va ixcham grammatikaga ega ushbu til tabiiy tilni optimallashtirish va formal- lashtirishda qulay lingvistik dastur vazifa- sini o‘taydi.

Keyingi paytlarda jahon kompyuter lingvistikasida matnga avtomatik ishlov berishning ilmiy va amaliy natijasi ustida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Jum- ladan, matnni avtomatik tushunish, mashina tarjimai, matnni referatlash (gipermatnni asosiy mazmuni o‘zida saqlagan mini- matn shakliga keltirish, ya‘ni matn hajmini qisqartirish, uni qisqa bayonga aylantirish), tasniflash (mavzu, uslub va janr jihatidan yaqin matnlarni guruhlash), matnni tahrir va tahlil qilish, matnni generatsiyalash (bir nechta tabiiy tilga oid hujjatli matnlardan formula, texnik ishlanmalar, dasturiy tizim- larni yig‘ish), matndan ma‘lumotni olish, og‘zaki nutqni aniqlash va sintez qilish kabi dolzarb masalalar kompyuter lingvistikasi- ning mundarijasini egallagan.

Matnlarga ishlov berishning avtomatik tahrir yo‘nalishi XX asrning 60—70-yillari-

da shakllandi. U matn muharriri dasturlari bilan birga yangicha imkoniyatlar asosida rivojlanmoqda. Oddiy muharrirlardan farqi shundaki, unda avtomatik tarzda qisqa vaqt ichida katta hajmli matnlarni tez tekshirib, xatolarni samarali to‘g‘rilash imkoniyati mavjud. Avtomatik tahrirning pragmatik ahamiyati shundaki, u kelajakda taraqqiy etsa, yetarli ma‘lumotlar bazasi yaratilsa va maxsus dasturlar ishlab chiqilsa, muharrir kasbi uchun ehtiyoj qolmaydi. Bu esa matn bilan ishlashni osonlashtiradi.

Lingvistik tahrir — turli ko‘rinishdagi (ilmiy, badiiy, publitsistik va rasmiy uslub- lardagi) matnlarning orfografik, gramma- tik, stilistik hamda mantiqiy qurilishini tek- shirish demakdir.

Avtomatik imlo tekshirish imkoniyati ingliz tilidan Yevropa davlatlari tillariga qadar kengaytirildi. Garchi flektiv tillarni tahrir qiluvchi dasturning lingvistik ta‘mi- noti va algoritmi agglutinativ tabiatli tillar grammatikasiga mos kelmasa-da, keyincha- lik bir qancha Osiyo tillari doirasida shun- day sistemalar ishlab chiqildi. Jumladan, venger va fin tillaridagi matnlarni imlosini tekshirish tizimini yaratish uchun lingvis- tik ta‘minotning morfologiyasini qayta ish- lashga to‘g‘ri kelgan.

Bugungi kunda Firefox 2.0 kabi veb-brauzerlar ko‘plab elektron sayt, blog va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari yo- zadigan har qanday hajmdagi matnlarning imlosini tekshirish, tahrirlash imkoniyati- ga ega. Mac OS X (Makintosh operatsion) sistemasi hozir boshqa barcha sistemalar uchun avtomatik orfografik tekshirish funksiyasiga ega bo‘lib, uni yanada takomillashtirish yo‘lidan bormoqda.

Ba‘zi imlo tekshiruvchi dasturiy mahsulotlar muayyan sohalarga mo‘ljal- langan. Asosiy maqsad soha doirasida yaratilgan lingvistik ta‘minotdagi termin- lar, etimologik lug‘atlar, qisqartma so‘zlar, maxsus belgilar asosida kompyuterga ki- ritilayotgan matnlarni sifatli tahrir va tahlil qilishdan iborat.

Bugun o‘zbek tilidagi matnlarni tahrir qi- lish inson mehnati bilan amalga oshirilmoqda. Bu esa o‘z navbatida matnlarni tahrirlashga ko‘p vaqt sarflanishi, iqtisodiy xarajatlarning oshishi, inson tomonidan yo‘l qo‘yiladi- gan xatoliklarga sabab bo‘moqda. Shu bois o‘zbekcha matnlarni tahrir va tahlil qiluvchi dasturning lingvistik ta‘minotini yaratish mu- him ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Manzura ABJALOVA,

NDKI ilmiy-uslubiy bo‘lim mudiri,
TDO‘TAU mustaqil tadqiqotchisi

Pedagog minbari

O'zbek maqomi fani joriy etilsa...

Bugun mamlakatimizda musiqa san'atining nafis, noyob hamda takrorlanmas gultoji bo'lmish maqom san'atini ommalashtirish borasida turli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda menda ham bir taklif bor. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan bolalar musiqa va san'at maktablarining barcha yo'nalishlarida 2019-2020-o'quv yilidan boshlab o'zbek maqomi fanini joriy etish zarur va dolzarb masala, deb o'ylayman. Maqom kuylari ijrochi-yu sozandadan ham, tinglovchidan ham ma'naviy yetuklik hamda butun qalb bo'lishini talab etadi. Bunga, avvalo, bolalikdan o'rganish lozim.

Musiqa va san'at ta'limiga ixtisoslashgan muassasalarda o'zbek musiqa adabiyoti yoki o'zbek musiqasi tarixi fani ichida maqom san'atiga oid ma'lumotlar berilishi bilan kifoyalangan. Ammo tinglash orqali tushunish, farqlash hamda tahlil qilish orqali maqomni kengroq o'rganish ta'lim jarayonida yo'lga qo'yilmagan. Vaholanki, xorijiy musiqa adabiyoti, rus musiqa adabiyoti fanlarida o'zlar mansub xalq musiqa madaniyatini o'z kompozitorlari yaratgan

asarlari orqali tinglab, tushunib, tahlil qilish va o'rganish yo'lga qo'yilgan. Albatta, chet el kompozitorlari yaratgan asarlar klassik an'ana asosida o'z shakliga ega. Bunday musiqiy asarlarni tushunish va idrok etish, yana qayta tinglaganda kimning qanday nomdagi asari ekanini xotirlash qiyin bo'lmaydi. Maqom esa musiqiy ohangi, tuzilish shaklining anchayin murakkabligi bilan musiqa san'atlari ichida ajralib turadi. Shunday ekan, ushbu nafis san'at turini

musiqa darsliklari ichida qisman o'rgatish yetarli bo'lmaydi. Alohida fan sifatida o' sib kelayotgan yosh avlodga keng targ'ib etish hamda ta'lim sohasiga qat'iy kiritish orqali o'rgatish, bosqichma-bosqich mukammal va mustahkam tushuncha berish zarur. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun o'zbek maqomi tarixi haqida o'quvchi yoshiga mos ma'lumotlar berish va tushuntirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, shu yo'l orqali "Shashmaqom"ning kelib chiqishi, har bir maqom qismlari haqida alohida va tushunarli bo'lgan manbalarni o'rgatish talab etiladi.

Bundan tashqari, Ozarboyjon va Tojikiston respublikalarining musiqa ta'limi jarayonini kuzatish ham zarar qilmaydi. Bunga sabab esa ushbu xalqlar o'z milliy mumtoz musiqa san'atini bolalar musiqa maktablaridan o'rgatishni bir necha yillar oldin yo'lga qo'yib bo'lgan. Ozarboyjon mug'omlari va Tojikiston maqomlari qa-

torida bizning maqomimizni ham nafaqat o'rta ta'lim, balki boshlang'ich ta'limda va oliy ta'lim muassasalarida ham o'rgatish vaqti keldi. Yuqorida keltirilgan fikrlar nechog'lik muhim va dolzarb ekanini anglagan holda 2019-yil yanvar oyidan boshlab Andijon shahridagi 28-bolalar musiqa va san'at maktabining barcha yo'nalish o'quvchilariga birdek o'zbek maqomi nomli yangi fanni o'qitish jarayoni boshlandi. Aprel oyining oxirgi haftasida esa viloyat musiqa maktablarining "Musiqa nazariyasi" bo'limi o'qituvchilariga ochiq dars o'tib berildi. Natijada o'zbek maqomi fani uchun mukammal o'quv dasturi, dars o'tish jarayoni uchun maxsus reja tuzilib, kelajak avlodlar maqomni bolalikdan tinglashni, his etish orqali o'rganishlari kerakligi ta'kidlandi va kelgusidagi rejalari belgilab olindi.

Farida MAQSUMOVA,
Andijon shahridagi
28-bolalar musiqa va san'at
maktabi o'qituvchisi

Fikr, mulohaza, taklif

"Tushunaman, ammo javob qaytara olmayman"

Maktablarda chet tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish, zamonaviy madaniyat, fan-texnika yutuqlari asosida kadrlar tayyorlash davr taqozosidir. Bu taraqqiyot sari tashlanayotgan qadam hammadan, ayniqsa, har bir o'qituvchidan o'ziga xos ijodkorlik, malaka va tajribani talab etadi. Bolalarga xorijiy tilni o'rgatayotgan pedagog uchun to'g'ri so'zlashuv asosiy o'rindagi masala. Ba'zi til o'rganuvchilar uchun grammatikani o'zlashtirish, xorijiy tildagi kitob yoki matnlarni o'qish va audioyozuvlarni tinglash muammo tug'dirmaydi.

Biroq *muammo* shuki, ular chet tilida gapirish va o'z fikrlarini bayon qilishga kelganida "tushunaman-u, javob qaytara olmayman" deb qiyin vaziyatda qolishadi. Ayni *muammo* boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari o'rtasida ham uchraydi. Bunga sabab xorijiy til muhitining yo'qligi va bu muhitni yaratish oson emas.

Yechim: Til o'rganishda muhit yaratish katta shaharlardagi ta'lim muassasalarida unchalik murakkab emas, boisi o'quvchilarni ota-onasi ishtiroki va yordamida sayohatlar ko'p kelaqindan joylarga sayohatga olib borish ham natija beradi. Bu imkoniyatga ega bo'lmaganlar esa maktabdagi multimedial vositalardan samarali foydalanishi, chet tilidagi video yoki multfilm qo'yib berish, audioyozuvlarni eshitirish va dialoglar tuzdirib suhbatlashishlarini tashkil etish mumkin. Va yana ota-onalar tilni bilmagan uchun farzandiga uy vazifasini bajarish jarayonida yordam berolmaydi. Shu o'rinda xonadagi buyumlarning ustiga nomi va rangi inglizcha yozilgan qog'ozcha yopishtirib qo'yilsa yoki chet tilidagi film, videorolik yoki multfilm (subtitrlari bilan bo'lsa yanada yaxshi) tomosha qilsa, tinglab tushunishi va gapirishi ancha osonlashadi. Kino, multfilm va turli qiziqarli ko'rsatuvlarni ko'rib, asta-sekin tinglab tushunadigan, keyinchalik esa eshitgan va esida qolgan so'z hamda so'z birikmalarini so'zlashuvda qo'llaydigan bo'lishadi.

Yana bir *muammo* esa o'g'il-qizlarning so'z boyligi kamligidir. Boshlang'ich sinfni bitirgan o'quvchilar kamida 400–500 ta so'z bilishi kerak. Har bir darsda yangi so'zlarni yodlatish va shu so'zlar yordamida kichik hikoyalar tuzdirib, gapirishga undash yaxshi natija beradi. Faqat takrorlash orqali bu muammoning yechimini topish mumkin. Tilni muntazam ravishda takrorlashsiz o'rganib bo'lmaydi. Kuniga 10 ta yangi so'z yodlashingiz mumkin, ammo bu so'zlarni keyinchalik takrorlamangiz esdan chiqib ketishi aniq.

Yechim: Bola yodlagan yangi so'zlarni kichik

qog'ozchalarga yozib, uning ko'z o'ngida joylashgan mebel va devorlarga yopishtirib chiqish mumkin. Bu usul xonadonda yoki sinfxonada foydalanish uchun tavsiya etiladi. Keyin shu so'zlar yordamida jumlar tuzilsa, xotirada uzoq saqlanadi.

Keyingi *muammo* o'quvchining so'zlashishdan uyalishi yoki tortinchoqligidir. Boshlang'ich sinf misolida ko'rsak, bolalar o'z sinf rahbarlarini yaqin kishisi sifatida qabul qilishadi va boshqa fan o'qituvchilaridan biroz immanishadi. Ba'zida bu o'qituvchi bilan muloqot qilishda hayajonlanadi.

Yechim: Olti yil ilgari boshlang'ich sinflarga ingliz tilini o'rgatishni boshlaganimda, ba'zi o'quvchilarning uyalib gapirmayotganlarini sezib qoldim. Masalan, yangi so'zlar va she'rlarni bilsa-da, aytolmaydigan o'quvchilar doskaga chiqsa, yanada hayajonlanishadi va bilgani ham esidan chiqib ketadi. Bu holatda o'sha o'quvchilarning faol o'rtoqlarini jalb qildim. Ya'ni tortinchoq o'quvchidan yangi so'zlarni so'rashda o'zim chetga chiqqan holda bu vazifani tengdoshlariga yukladim. O'qituvchisi qarshisida biron uyali hayajonlanadigan o'quvchi o'rtog'i so'raganda bemalol bilgani gapirib beradi. Bu usul yordamida barcha o'quvchilar faollikka intilib, biroz muddat bo'lsa ham ustozining o'mida bo'lishga qiziqadi. Bunday motivatsiya ularning o'z ustida yanada ko'proq ishlashiga turtki bo'ladi.

O'z tilidan boshqa tilni o'rganish unchalik oson emas. Buning uchun o'quvchi yangi so'zlarni davomiy takrorlab borishi, fursat bo'lganida xato qilishga uyalmasdan muloqot qilishi, chet tilini o'rganish jarayonini hayotga moslashtirishi, va nihoyat, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishi talab etiladi. Muhimi, chet tilini puxta bilishni istagan o'rganuvchi o'z oldiga qat'iy maqsad qo'yishi va unga erishish uchun bosqichma-bosqich harakatdan to'xtamasligi lozim.

Mahbuba JABBOROVA,
Nurobod tumanidagi 2-maktab o'qituvchisi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini kengaytirish, erkin fikrlash tarzi va ko'nikmalarini rivojlantirishda badiiy asarlarning o'rni va ahamiyati beqiyos.

"Odam bo'laman!"

Yaqinda maktabimizda "Binafsha" bolalar kunduzgi o'romgohining yangi mavsumi boshlandi. Ochilish marosimida O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjonning "Yapaloq tovuq" she'riy to'plamining taqdimoti o'tkazildi. Bolalarimiz "Yapaloq tovuq"ni juda katta qiziqish bilan o'qishdi, ko'pchiligi undagi she'rlarni yod oldi. To'plam "Odam bo'laman!" sarlavhali she'r bilan boshlanadi.

Anvar Obidjonning kichikintoylarga mo'ljallab yozilgan asarlarida bolalar xarakteridagi eng nozik jihatlar namoyon bo'ladi. Ochig'ini aytish kerak, kichikintoylarga hamma kitobni yaxshi ko'rdirish mumkin emas. Zero, kitobni varaqlayotgan bola, avvalo, undan o'zini, o'zi bilan qiziqishlari, orzulari bir bo'lgan o'rtoqlarini qidiradi. "Odam bo'laman!" she'rida ham dunyoni jazzi nigohi bilan ko'rishga, uning tilsimlari, turfa sir-asrorlarini o'zicha bilishga, kashf qilishga intilayotgan bolaning dadasi bilan suhbat beriladi. Albatta, "Kelajakda kim bo'lsam ekan?" degan savol hammani qiziqtiradi. She'rda bolakay dastlab ko'p joylarni kechishni, ba'zan kitob titkilab uyda dam olishni istasa, birpasdan keyin fikri o'zgaradi va shofyor yoki fazogir bo'lishni, keyinroq esa futbolchi, shifokor bo'lishni orzu qiladi. Dialogik nutq uslubiga asoslangan mazkur she'rda bolajonlarning qiziquvchanligi, beg'ubor orzulari, eng muhimi, hayotga va kelajakka munosabatlari nihoyatda samimiy, ishonarli tasvirlangan.

Maktabda biz o'qituvchilar, uyda ota-onalar ularning shirin orzulari haqidagi uchqur xayollarni atqoli shoirimiz Anvar Obidjon yaratgan o'ta obrazidek bag'rikenglik, sabr-toqat bilan tinglashimiz kerak. Ularni kasb tanlashda shoshqaloqlikda ayblamasligimiz, farzandlarimizning bilim va qiziqish darajasi tobora kengayib borayotganligini, u yoki bu masalada ularning shaxsiy mulohaza va xulosalari ham muhim ahamiyatga ega ekanini esdan chiqarmasligimiz kerak. Kichikintoylar uchun, eng avvalo, ularning fikr-mulohazalariga qiziqish va istaklariga e'tiborli bo'lish muhimdir. Boshlang'ich sinflarda ularga shu nuqtayi nazardan e'tibor bersak, yuqori sinflarga o'tganda ularning ijtimoiy faolligini oshirish, ochiq muloqotga chorlash oson bo'ladi. Darhaqiqat, o'sib kelayotgan yosh avlodning shaxs sifatida shakllanishi, yetuk kadr bo'lib ulg'ayishi, O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjonning qahramoniga o'xshab, turli kasblar orasidan muhimini ajratib olishi, tez o'zgarib borayotgan jarayonlar ichida o'zining "men"ini, o'zligini topishda yangilashib qolmasligi murakkab vazifa hisoblanadi. O'quvchilarning she'ri faqat ifodali o'qib berishmadi, balki she'rning g'oyasidan kelib chiqib, unga doir maqollar aytishdi, she'r haqidagi tushunchalarini o'zlari chizgan rasmlarda ifodalashdi. Donishmand xalqimizda "Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l" degan maqol bor. Nazarimizda, bu maqolda "odam bolasi" kengroq ma'noda, ya'ni "elning bolasi" mazmunida kelyapti. Demak, farzandlarimiz otasi yoki bobosining obro'si bilan faxrlanishi kifoya emas, o'zlari ham asl odamiylik xislatlari bilan qalblarini boyitishlari zarur.

Haqiqat HAMROYEVA,
Kattaqo'rg'on tumanidagi
17-maktab direktori
Sevinch MAJIDOVA,
Yoshlar ittifoqi yetakchisi

Kitob — najot, kitob — xaloskor

— Boshimni ko'tarib qarasam, yolg'iz ekanman. O'zimga do'st topayin, deb kitoblardan najot izladim. Faqat kitob o'qidim. Kitobning ichida yashadim. Odamlarga qarayman. Ular boshqa, kitob ichidagi do'stlarim boshqa. Men kimligimni bilmayman. Odamlarga qarayman: ular nega kitob o'qimaydi, mening do'stlarimni nega ular tanimaydi? Kitoblarni o'qisam, ichimga kirib ketadi o'sha gaplar. Men ular bilan ko'nglimning yaxshi kunlariga yetaman. Dunyoda ezgulik borligiga ishonaman. O'qigan kitobimning ta'sirida xushnud va baxtiyor yuraman.

Hayotim tinimsiz mehnat bilan o'tdi. Butun umr o'qituvchi bo'lib ishladim. Yigirma olti yil boshlang'ich sinflarga dars berdim. Bolalarga kitob haqida ko'p gapirdim, kitobga muhabbat uyg'otdim. Hozir ularning ko'pi katta joylarda, mas'ul vazifalarda ishlaydi. Qayerda bo'lmasin, ular ezgulikka xiyonat qilmaydi, kitoblarga xiyonat qilmaydi. Shuni ko'nglim sezadi.

Qo'linga pul tushsa, yangi kitob olishga oshiqardim. Pul topmasam, o'qib bo'lgan kitobimni arzonroqqa bo'lsa ham sotib, yangisini olardim. Goho odamlar meni libosi durustmas, kiyimlari zamonaviy emas, deb pisand qilishmasdi... Menga ularning gapi nodonlikdek tuyulardi. Ichimga bir boqsalar edi, boqolsalar edi, kitoblar qo'li bilan yaratilgan eng go'zal, hamma zamonlarda ham eskirmaydigan dunyolarga duch kelishardi. Ammo ular men o'qigan kitoblarni ham, mening ichimni ham bilishmasdi. Ular meni ishdan haydashga harakat qilishdi. Ammo to'g'riligim uchun, ishda kamchilgim yo'q uchun niyatlariga erisholmadilar. Mening kitob ismi himoyachimni ular yengolmadilar.

Yoshim yetmishni qoraladi. Ko'nglim hamon yosh. Hamon kitobga to'yamayman. Goh o'zimga mos zamondosh topmaganimdan, meni odamlar tushunmaganidan xafa bo'laman. Yoki men xato yashadimmi... Sizga ko'p gaplar keltirgan edim, yo'qotib qo'ydim. Sizni juda ko'p izladim. Mas'ul vazifadagi bir ayoldan manzilingizni so'rasam, "Nimaga izlaysiz, qaysidir olis qishloqdan kelgan o'zbek-da u", dedi. Yana xafa bo'ldim. Mana, nihoyat topdim sizni. Sizga ko'p gaplar keltirgandim, yo'qotib qo'ydim, — dedi ayol xijolat ohangida.

— Xafa bo'lmang, yo'qotganlariniqizni birga izlaymiz, — dedim yillar sochlariga oq qo'ndirgan, yuzlaridan nur yog'ilib turgan ayolga. — Qarag kitoblar bizni topishtirganini, garchand olis qishloqdan kelgan bir o'zbek bo'lsam ham, — deb kuldum.


Shu kuni ikkimiz mazza qilib kitoblarni ichidagi o'z dunyomiz haqida suhbatlashdik. Yangi kitoblarimdan sovg'a qildim. Bizni tushunmaganlarni yomonlaganimiz ham yo'q. Ular biz bilan dunyoni bilmasliklariga achindik. Ko'nglimiz top-toza va yosh, orzularimiz bisyor edi. Baxtiyor edik. Uylarimiz ham yaqin ekan.

— Bir kuni dunyolarga sig'may qolsam, Sizni izlab boraman, — desam, ayol shoshib qoldi:

— Mening oddiy uyimga borasizmi?

— Ha, sizning hammanikidan baland va go'zal qalbingizga boraman.

Nafaqadagi muallima qalbimda yorug' iz qoldirib ketdi. Uning har qanday holatda ham umidlaridan ayrilmagani, yashashga sabablar topgani, o'quvchilarini, farzandlarini ham kitobga muhabbat ruhida tarbiyalagani ha-



qida o'ylash menga huzur bag'ishlardi. Odamlar ikki toifaga bo'linadi: kitob o'qiydigan va kitob o'qimaydiganlarga, degan qarorga keldim. Eng og'ir damlarda kitobdan najot topmoqqa yana bir bor ishonдим.

Bir kuni xorijlik bir yigit rafiqasini uncha-muncha havasmandlarning qo'li yetmaydigan nufuzli oliy o'quv yurtida o'qitayotganini aytgan edi. Keyin ma'lumoti bo'yicha ishlaydimi, deb so'rasam, "Farzandlarimizni tarbiyalaydi. Bilimsiz ayol farzandlarimning onasi bo'lishini istamayman", degandi. Kitob o'qigan va o'qimagan onalarning farqi ko'z oldimga keldi. Bolalarimga o'qishga, paxtaga, xorijga ketgan paytlari (hozir nabiralaringa) yozgan mak-tublarim esimga tushdi. Mak-tublardagi shirin kinoyalar, sog'inchlar va ularning ham shunga mos javoblarini oddiy mak-tublar deb o'ylar ekanman... Qarasam, unaga emas ekan.

Otam og'ir kasalga chalinib yotgan paytlar edi. Hammamiz uning yuziga termular edik. Nima yeyishni istasa, muhayyo qilardik. Samarqanddagi eng katta do'xtirlarga ham olib bordik. Otam qattiq og'riqdan qiynalar, biz

nima qilishni bilmay, unga termulardik, oyoqlarini navbat bilan uqalardik. Bir kuni otam kutubxonadan Sadridin Ayniyni "Qullar" romanini olib kelishimni so'radi. Bu kitob o'zimning uyda, akamning kitob javonida borligini aytdim. Shu kitobni o'qib berishimni so'radi. Men bu iltimosni jon deb bajardim. Ifodali, tushunarli o'qib berishga kirishdim. Bir-ikki soat mutolaa jarayonida otam og'riqlarni unutar, ingramasdi. O'rtadagi sandalning bir chetida men o'tirardim, narigi chetida otajonim yotardi.

Otamning hamma kitoblari arab yozuvida bo'lib, biz ularni tushunmasdik. Hali sinfdoshlarim bilmagan, biz darsda keyinroq o'tgan shoirlar: Navoiy, Fuzuliy, Mashrab g'azallarini, "Chor darvesh", "Ming bir kecha" ertaklarini ilk bora otamdan eshitardik. Ayniqsa,



yangi yozgan she'rlarimni o'qitib, eshitardi. Kitob davraga bir ilqlik bag'ishlab, hammamizni ezgulik rishtalari bilan bog'lab turardi. Otamning dardini yengillashtirardi. Umrini uzaytirardi. Xaloskorimiz edi "Qullar".

Yaqinda mehmonga kelgan nabiralarni kitob do'koniga olib bordim. Hamisha qo'g'irchoq va mashina tanlaydigan kichkintoylarim bu gal yayrab kitob tanlashdi. Hatto do'kon egalari qudag'ayim Halimaxonga ham o'ziga mos kitobdan sovg'a qilishdi. Bolalarim kabi qudam ham suyundi. "Hammalari sizni tanisharkan-a!", dedi xursand bo'lib. Jilmayib qo'ysam ham ichimda biram kerildim... Kitob yaxshi-da, hatto savdolashish ham maroqli. Ammo mening mehmonimga tekinga sovg'a qilishdi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" kitobida shunday gaplar bor: "Ellarni oluvchi qilich yordamida oladi, elni qo'lda saqlab turuvchi qalam yordamida saqlaydi."

Qaysi bir el shahar va qishlog'i qalam vositasida tutib turilsa, o'sha yerlarda istalgan barcha narsalardan bahra nasib bo'ladi".

Eng kerak gapni Yusuf Xos Hojib bobomiz aytgan ekan. Men nima ham deya olardim. Kitob — najot, kitob — xaloskor, deydishdan boshqa.

*Sizni tushunmayin qiynasa ag'yor,
Boshingiz ustiga keltirsalar dor,
Kitob sovg'a qiling, o'qinglar birga,
Kitob najot erur, kitob xaloskor!*

*Ezgulik yo'liga boshlaguvchi ul,
Kuldirguvchi, ko'zni yoshlaguvchi ul,
Ko'ngil birla qadam tashlaguvchi ul,
Kitob najot erur, kitob xaloskor!*

*O'rgatar insonga qadr-u qimmatni,
Hotamtoylikni-yu shafqat, himmatni,
Insofga chorlaydi banda, ummatni,
Kitob najot erur, kitob xaloskor!*

*Hamma tashlab ketsa, u qolar faqat,
Varaqlarda saboq va sevgi qat-qat,
Do'stlarga sadoqat, yurtga muhabbat,
Kitob najot erur, kitob xaloskor!*

Xosiyat BOBOMURODOVA,
shoira

1819-yilning 24-iyun kuni Charlz Menners-Satton Kenterberiy arxiyepiskopi saroyi — Kensingtonda bir oylik chaqaloqni cho'qintirish marosimi o'tkazildi. Qirollik oilasida dunyoga kelgan qizaloqni ikkita ism — onasining nomi bilan Viktoriya hamda rus imperatori Aleksandr I sharafiga Aleksandrina deb atashdi. Tug'ilib o'tgan qizaloqni Viktoriya-Aleksandrina 18 yoshida mamlakat qirolichasi sifatida hukumat tepasiga chiqdi va Britaniya imperiyasini 63 yil boshqarib, tarixda qat'iy axloq normalariga asoslangan "viktoriyacha qoidalar"i bilan nom qoldirdi.

Nafaqat Britaniya, balki jahonda o'zining qattiqqo'lligi va aniq belgilangan tartib-qoidalar bilan nom taratgan Viktoriya aslida davlatchilik zarurati yuzasidan dunyoga kelgan. O'sha kezlari Britaniya qirolligi oilasida hammasi narsa alg'ov-dalg'ov bo'lib ketgan, qonuniy hukmdor Georg III og'ir ruhiy kasallikka duchor bo'lib, notavon insonga aylanib qolgan. Qirolning 15 nafar merosxo'ri bo'lishiga qaramay, ular orasidan birgina Sharlotta Uelskiyigina qonuniy nabira edi. Ammo baxtga qarshi, 1817-yili 21 yoshli malika Sharlotta og'ir kechgan tug'ruq tufayli vafot etdi. Farzandi ham uzoq yashamadi.

Bu vaziyatdan tang ahvolda qolgan qirollik a'zolari sulola kelajagini o'ylab boshi qotdi. Endi yagona umid Georg III ning to'rtinchi o'g'li — Kentsiya gersogi Eduard Avgustdan edi. Ancha keksayib qolgan shahzodaga darhol oila qurib, merosxo'r dunyoga keltirish topshirig'i berildi. Shunday qilib, 1818-yili 51 yoshli Eduard Saksen-Koburg-Zaalfeld gersogining 32 yoshli qizi, 2 farzandli beva Viktoriyaga uylandi va ular 1819-yilning 24-may kuni uzoq kutilgan merosxo'r — to'rt murchasi sog'lom qiz farzandli bo'lishdi. To'g'ri, bu chaqaloq qirollik oilasi kutganidek o'g'il bola emasdi, ammo bunday og'ir vaziyatda hech kimda tanlov imkoniyati yo'q edi.

Viktoriya taxtga beshinchi nomzod bo'lib dunyoga keldi. Biroq oradan sakkiz oy o'tib, otasi shahzoda Eduard zotiljam tufayli olamdan o'tgach, u to'rtinchi nomzodga aylandi. Qizaloq 10 yoshga yetar-yetmas amakisi Georg IV ham olamdan o'tdi va taxtga boshqa amakisi, 65 yoshli Vilgelm IV o'tirdi. Ungaicha hech bir ingliz shahzodasi bu qadar kech hukmdor bo'lmagandi.

Vilgelm taxtga o'tirguniga qadar oddiy yashagan. Uzoq yillar aktrisa Doroti Jordan bilan baxtli hayot kechirib, 10 nafar farzandli bo'lgan. Ammo oddiy aktrisa ulkan imperiya taxti vorisining onasi bo'lolmasdi. Shu bois Vilgelm keksa bo'lishiga qaramay, o'zi istamagan tarzda boshqa bir zodagon ayol — Adelaida Saksen-Meyningenskiyga uylandi. Ular ikki nafar qizli bo'lishdi, ammo chaqaloqlarning hech biri yashamadi. Alaloqibat, uning jiyani Viktoriya Britaniya imperiyasining yagona vorisiga aylandi. Shunda Vilgelm saroy ahli bilan Viktoriya hali yosh bo'lgani bois uning balog'atga yetishi ham-

da qirolicha vazifasiga tayyor bo'lishini kutishga kelishdi. Keksas hukmdor so'zining ustidan chiqib, o'sha kun kelguniga qadar yashashga o'zida kuch topdi va Viktoriya 18 yoshga to'lishiga bir oy qolganida bu yorug' olamni tark etdi. O'sha kundan Viktoriyaning hayoti butunlay o'zgardi. Bolaligidan barcha voqea-hodisalarni shaxsiy kundaligiga qayd etib boradigan Viktoriya hayotidagi eng muhim sana — 1837-yilning 20-iyun kuni haqida shunday yozadi: "Tong sahar soat 6 da onam meni uyqudan uyg'otib, Kenterberiy arxiyepiskopi hamda Koningem lordi shu yerda ekan va meni ko'rishni istayotganlarini aytdi. Men darhol yotog'imdan turib, mehmonlarning oldiga chiqdim va ular bilan birma-bir salomlashdim. So'ng Koningem lordi menga amakim, mamlakat qiroli endi oramizda yo'qligi, tonggi soat 3 da bu dunyoni tark etgani, endi men qirolicha bo'lishimni aytdi".

Birinchi kuni yosh qirolichani barcha rasman Viktoriya-Aleksandrina deb atagan bo'lsa, keyinchalik uning istagiga ko'ra, shunchaki, qirolicha Viktoriya deya boshladi. 1838-yilning 28-iyunida ulug'vor Bukingem saroyida tantanali toj kiydirish marosimi bo'lib o'tdi. O'shanda Viktoriya mamlakatning eng hashamatli saroyida toj kiydirilgan birinchi taxt vorisi edi.

Mamlakat qonun-qoidasiga ko'ra, qirolicha naslning davomchisi sifatida o'ziga munosib insonga turmushga chiqishi kerak edi. Biroq Viktoriya qirolichalik mas'uliyati shaxsiy hayotidan ustun ekanini anglab yetsa-da, davlat kelajagi uchuniga ko'ngil qo'yimagan insoniga turmushga chiqishini istamadi.

1839-yili Rossiya taxti vorisi Aleksandr boshchiligidagi Britaniya rus delegatlarini keldi. Harbiy kiyimdag 21 yoshli taxt vorisi va 20 yoshli Viktoriyaning uchrashuvi ularning orasida iliq munosabatlarni uyg'otdi. Biroq bu munosabatlar inglizlarni ham, ruslarni ham qattiq tashvishga soldi. Chunki ularning turmush qurishi yoki ruslarni taxt vorisidan, yoki inglizlarni qirolichasidan mahrum etishi mumkin edi. Viktoriya va Aleksandr ham buni yaxshi anglasa-da, ko'ngilga buyruq berolmasdi. Oxir-oqibat, bu munosabatlardan hech narsa chiqmasligini tushungan ikki yosh do'stona xayrlashdi.

Tez orada Viktoriyaga turmush o'rtoq sifatida siyosatchi-

"Qattiqqo'l ledi"

yoxud qirolicha Viktoriyaning axloq me'yorlari

larning nazarida eng munosib nomzod — 20 yoshli Albert Frans Avgust Emmanuil tavsiya etildi. Yigit Viktoriyaning tog'avachchasi bo'lib, ular avval ham ko'rishgandi. Ammo bu galgi uchrashuv voyaga yetgan ikki yoshning uchrashuvi edi va Viktoriya yigitni ko'rgach, chinakam muhabbatini topganini his etdi. Oradan 5 kun o'tib, Viktoriya Albertga turmushga chiqishga rozi ekanini bildirdi.

Shu tariqa 1840-yilning 10-fevralida ular oila qurdi. Viktoriya shaxsiy kundaligiga to'y oqshomi tafsilotlarini bitar ekan, bu sana uning hayotidagi eng baxtli kun bo'lgani va Albert bilan uning o'rtaqidagi ulkan muhabbat to'g'risida to'liqlanib yozadi.

Chindan ham Albert suyuqlik Viktoriyaning butun hayotini muhabbatga to'ldirdi. Ular so'nggi nafaslariga qadar bir-birlariga eng yaqin do'st, sirdosh va har qanday vaziyatda ko'makchi bo'ldilar. Viktoriya qanchalik buyuk qirolicha bo'lmasin, turmush o'rtog'ining yonida oddiy rafiqaga aylanardi. Doim Albertga g'amxo'rlik qilishni, u bilan turli mavzularda suhbatlashishni yoqtirardi. Qirolicha o'zini hech qayerda Albert va 9 nafar farzandining yonida bo'lgani kabi baxtiyor his etolmasdi.

Albert nafaqat oilada, balki davlat ishlarida ham hamisha Viktoriyaning yonida turib, uni qo'llab-quvvatladi. Qirolichaga munosib tarzda adolati va xalqparvar siyosatini bo'ldi. Doim oddiy insonlarning g'amini yeb, xalqning turmush sharoiti, bolalarning o'qishi bilan qiziqdi. Hatto mamlakatda yangi maktablar, shifoxonalar qurirdi.

Aytish kerakki, qirolicha Viktoriya boshqaruvi davrida Britaniya imperiyasi gullab-yashnadi. Davlatni boshqarishda Viktoriyaning vakolatlari parlamentga nisbatan cheklangan bo'lishiga qaramay, qirolicha sifatida butun mamlakatni o'z kuchi va aqlidroki bilan ushlab turdi. Uning hukmronligi davrida Britaniyaga dushmanlar, qonli urushlar xavf solmadi.

1861-yili Viktoriyaning onasi vafot etdi va qirolicha bundan qattiq tushkunlikka tushdi. Shunda Albert rafiqasi o'ziga kelib olguniga qadar bir muddat uning zimmasidagi vazifalarni bajardi. U davlat ishlarini boshqarish bilan birga o'zi sevgan yo'nalish — turli ko'rgazmalar tashkil etish bilan shug'ullandi. Ammo shu yilning dekabriga borib Albertning salomatligida jiddiy o'zgarishlar paydo bo'ldi. Shifokorlar unga ichterlama tashxisini qo'ydi. 1861-yilning 14-dekabrda Viktoriyaning mehribon yori, ha-



yotdagi eng sadoqatli va ishonchli yo'ldoshi Albert sevikli rafiqasini yolg'iz tashlab, bu yorug' olamni tark etdi. Shu onda Viktoriyaning boshiga tog'lar qulagandek bo'ldi. Uning hayotidagi yorqin ranglar o'mini qora tuman qoplatdi. Quvnoq, baxtiyor qirolicha bir zumda motam libosiga burkangan odamovi bevaga aylandi.

Ammo hayot davom etardi. Viktoriya qanchalik tushkunlikka tushmasin, mamlakat qirolichasi sifatida o'z vazifasini davom ettirishga majbur edi. Uzoq vaqtli g'am-qayg'udan so'ng beva qirolicha davlat ishlariga qaytdi va birinchi galda, turmush o'rtog'iga atab hashamatli maqbara qurirdi. Mamlakatning turli joylarida Albertning sharafiga haykallar o'rnatib, eri boshlagan xayrli ishlar — maktablar, muzeylar va shifoxonalar qurishni davom ettirdi. Londondagi dunyoga mashhur "Albert-xoll" konsert zali ham Viktoriyaning turmush o'rtog'i nomiga qo'yilgan.

Ko'pchilik qirolicha Viktoriyaning davlat boshqaruvi beshafqat qoidalariga asoslanganini ta'kidlaydi. Ingliz adabiyotida ham Viktoriya hukmronligi davri aniq qonun-qoidalariga asoslangani bilan ajralib turgani haqida yoziladi. Ba'zan mamlakatdagi yozilmagan qoidalar parlament qabul qilgan qonunlardan-da qattiqroq "viktoriyacha axloq normalar"i taqiy va cheklovlardan iborat bo'lgani aytiladi.

Aslida, Viktoriya qoidalari unchalik vahimali emasdi. Ba'zilar hatto bu me'yorlarni jamiyat boshqaruvi uchun zarur ideal tizim deb hisoblagan. Viktoriya qoidalari jamiyatda har kim o'z o'rnini bilishi va odob-axloq normalaridan chetga chiqmasligi, ishchi ishchiligi, harbiy harbiyligini qilishi zarurligini eslatib turardi. Xuddi shunday, yuqori tabaqa vakillariga ruxsat etilgan ko'pgina narsalar quyi tabaqadagilarga man etilgan. Garchi "viktoriyacha qoidalar" hech bir qonunga kiritilmagan bo'lsa-da, barcha unga amal qilishi shart edi.

Viktoriyaning bu qoidalarni joriy etishiga, ehtimol uning bolalikdan onasi belgilagan qat'iy odob-axloq me'yorlari

asosida voyaga yetgani sababdir. Hamisha qizini qirolichalikka tayyorlagan ona Viktoriyaning salomatligi va axloqiga katta e'tibor qaratgan. Doim enagalar hamrohligida yurgan qizaloqning hatto alohida yotoqxonasi yo'q edi. Unga jamoat joyida yig'lash, begonalar bilan gaplashish ham man etilgan. Viktoriyaning bu qadar qattiq nazoratda ulg'ayishi keyinchalik unda jamiyatdagi axloq normalariga nisbatan aniq talablarni shakllantirdi.

Viktoriya qoidalari qanchalik qat'iy bo'lmasin, uning hukmronligi davridagi insonlarning odob-axloqi bugungacha barchaga namuna qilib ko'rsatiladi. Ayollar "ledi", erkaklar "jentlemen" deb ataladigan bu jamiyatda insonlarning o'zaro munosabati rasmiy bo'lishi, ayollarga "missis", erkaklarga "mister" deb murojaat qilinishi talab etilgan. Tul qolgan otaning turmushga chiqmagan qizi bilan bir uyda yashashi odob qoidalariga zid hisoblangan. Erkak shifokorlarning ayollarni ko'rikdan o'tkazishiga taqiqlar qo'yilgan. Ammo keyinchalik ayollar o'limi ko'paygani bois bu qoidaga chek qo'yildi.

1876-yili Ost-Indiya kompaniyasi tugatilgach, Viktoriya Hindiston imperatoriga aylandi va unga norasmiy "Yevropa buvisi" nomi berildi. 1896-yili Viktoriya Angliya, Shotlandiya va Buyuk Britaniyani uzoq vaqt boshqarish bo'yicha bobosi Georg III dan ham o'zib ketdi. 1897-yili u qirolicha bo'lganining 60 yilligini nishonladi.

Ammo 1901-yilga borib qirolichaning ahvoli keskin yomonlashdi. Atrofdagilarni taniy olmas darajaga yetdi va oxir-oqibat, shu yilning 22-yanvarida olamdan o'tdi. Vasiyatiga ko'ra, u oppoq libosda, sevimli insoni Albert yoniga dafn etildi. Viktoriya ulkan imperiyani 63 yil-7 oy va 2 kun boshqardi. Keyinchalik bu rekordni uning chevarasi Yelizaveta II yangilab, 65 yildan ko'proq vaqt taxtni boshqardi.

Iroda TOSHMATOVA
tayyorladi.

6 millimetrgacha kesilgan yurakka gel surtilganida, u yurak mushaklari yuzasini darhol birlashtirib, 20 soniyada qotirdi.

PLYAJDA YADRO QOLDIQLARI

Xalqaro geologlar jamoasi Xirosima ko'rfazi sohil-laridan noodatiy turdagi tog' jinslarini topdi, deb xabar qildi "Liga Novosti".

"Antropocene" jurnalida chop etilgan maqolada yozilishicha, avvaliga ushbu tog' jinslarining tuzilishi asteroid yoki kattaroq meteorit qulashi oqibatida hosil bo'ladigan jinslarnikiga o'xshashligi olimlarni hayron qoldirgan. Ammo keyinroq ular 1945-yilgi yadro bombardimonidan so'ng erigan modda zararlari ekani ma'lum bo'ldi.

Geokimyoviy tahlil natijalari topilma aerodinamik shakl va shishasimon tuzilishda ekanini ko'rsatdi. Granulalar tarkibi po'lat, beton, organika, alyumin va boshqa materiallardan iborat. Ular 1800 daraja issiq haroratda bir lahzada bug'lanib, atmosferaga "yadro qo'ziqorini" bo'lib ko'tarilgan. Shundan so'ng atrofga turli shakllardagi shisha granulalar ko'rinishida sochilib ketgan. Olimlar bunday zaralar soni shaharga yaqinlashgan sari ortib borgani, undan 30 km uzoqlikda yaqin qo'lganiga guvoh bo'ldi.

Tadqiqotchilar noyob jismga "xirosimit" deb nom berdi. Ularning fikricha, xuddi shunday zararlarni yadro bombardimoniga uchragan Nagasaki yaqini va yadroviy sinov maydonlaridan ham topish mumkin.

YURAKNI YELIMLAYDIGAN GEL

Xitoy va amerikalik biokimyogarlar har qanday shikastlangan qon tomirlari va hatto yurakning kesilgan qismini bir lahzada jipslashtirish imkonini beruvchi




foydalanganimizdan so'ng u yerda hech qanday jiddiy yallig'lanish alomatlarini topmadik, — dedi Xitoydagi Chjeszyan universiteti olimi Xunvey Ouyan.

Mutaxassislarning aytishicha, ushbu gel inson va hayvonlar organizmi uchun mutlaqo zararsiz bo'lib, undan nafaqat yurak va qon tomirlari, balki oddiy yaralarni bitkazishda ham foydalanish mumkin.

Itirochilar yangi kashfiyot tez orada tibbiyot amaliyotida o'z o'rnini topishi va kutilgan natijalarni berishiga ishonmoqda.

Iroda TOSHMATOVA tayyorladi.



Uchrashuv

Diydor shirin

Ishtixon tumanidagi 70-maktab hovlisida ushbu ilm maskanini bundan 50 yil oldin tugatib ketgan sobiq o'quvchilar yig'ilishdi. 1969-yili maktabni tamomlab, hayotda o'z o'rnini topish uchun har yoqqa tarqalib ketgan sinfdoshlar diydor ko'rishishdi.



Uchrashuvga nuroniy ustozlar ham tashrif buyurib, shogirdlarining muvaffaqiyatlaridan quvonishdi. Jumladan, Shami Juboyev, Ahmad Norjigitov, Norqo'zi Qurdoshev, Xolmo'min Aliqulov, Abdusalom O'rolov va Qiron Mardonov kabii faxriy ustozlar ezigu tilaklar bildirishdi.

— Maktabni bitirganimizga ham 50 yil bo'libdi, — deydi Qarshiboy Nazarov. — Sinfdoshlar bilan uchrashish uchun maktab ostonasiga qadam qo'yarkanmiz, dilimizda o'zgacha bir hayajon uyg'ondi. Shu kungacha sinfdosh yigitlar bilan tez-tez diydor ko'rishib turardik. Lekin bugungi uchrashuv har doimgidan-da maroqli va mazmunli o'tdi. Biz o'qigan vaqtlar orzu qilgan shart-sharoitlar nabiralarimizga nasib etdi. Bir partaga uch-to'rt bola o'tirardik. Kutubxonadagi kitoblarning yetish-masligini aytmasam ham bo'ladi, bitta kitobdan navbati bilan foydalanardik. Hozir nabiralarimiz barcha shart-sharoitlar yaratilgan sinfxonalarda ta'lim olmoqda. Yaqinda "Har bir bolaga bir kitob sovg'a qiling" aksiyasida ishtirok etib, sinfdoshlar bilan maktab kutubxonasiga badiiy kitoblar sovg'a qildik.

Maktab direktori Baxtiyor Rahmonov 70 yoshni qoralab qolgan bu bag'rikeng insonlar ushbu xayrli ishi bilan yosh avlodga ibrat bo'lganini e'tirof etdi.

Zafar ABDULLAYEV,
jurnalist

Pirmatov Rashid Xusanovichning 02.00.13 — Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi va 02.00.15 — Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi ixtisosliklari bo'yicha «Import o'rnini bosuvchi alyumosilikatli olovbardosh materiallarning tarkiblari va olish texnologiyasini ishlab chiqish» mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti va Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.K/T.35.01 raqamli bir martalik ilmiy kengashning 2019-yil 4-iyul kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77- "A" uy. Tel/faks: (71) 262-56-60, 262-79-90; e-mail: ionxanru@mail.ru

Xudayberdiyeva Mashhura Shavkatovnaning 14.00.14 — Onkologiya ixtisosligi bo'yicha «Me'da saratonii residivi, prognoz omillari ta'siri, erta tashxislash va davolashni yaxshilash yo'lar» mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04.12.2018.Tib.77.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 4-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Forobiy ko'chasi, 383-uy. Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi. Tel/faks: (71) 227-13-27, 246-15-96; e-mail: info@ronc.uz

Rustamov Akmal Asrorovichning 04.00.02 — Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi, ularni qidirish va razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo ixtisosligi bo'yicha «Namunalashning ishonchligi va aniqligi O'zbekiston oltin ma'danli konlari misolida» mavzusidagi (geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti, O'zbekiston neft-gaz sanoati ilmiy-tadqiqot va loyihalash instituti, Toshkent davlat texnika universiteti va I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti filiali huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.GM/T.41.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2019-yil 12-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100059, Toshkent shahri, Shota Rustaveli ko'chasi, 114-uy. Tel/faks: (71) 253-92-15; e-mail: igirmign@ing.uz

Yusupova Dilnoza Baxtiyarovnaning 14.00.14 — Onkologiya ixtisosligi bo'yicha «Qariya va keksa yoshdagi bemorlarda sut bezi saratonining kombinirlashgan va kompleks davosiga yangicha yondashuvni ishlab chiqish» mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04.12.2018.Tib.77.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 4-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Forobiy ko'chasi, 383-uy. Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi. Tel/faks: (71) 227-13-27, 246-15-96; e-mail: info@ronc.uz

Adxamova Negina Po'latovnaning 14.00.03 — Endokrinologiya ixtisosligi bo'yicha «Fertil yoshdagi ayollarda giperprolaktinemiyaning klinik-genetik parallellari» mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tib.30.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 8-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko'chasi, 2-uy. Tel/faks: (78) 150-78-25; e-mail: tta2005@mail.ru

Boltabayeva Ozodaxon Yuldashaliyevnaning 10.00.02 — O'zbek adabiyoti ixtisosligi bo'yicha «XX asr boshlarida Namanganda adabiy harakatchilik: namoyandalari, an'analari, yangilanishi» mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Fil.46.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 10-iyul kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: Toshkent shahri, Shahrisabz torko'chasi, 5-uy. Tel/faks: (71) 233-36-50, 233-71-44; e-mail: uztafi@akademy.uz

Aldasheva Shirin Jalgasovnaning 10.00.02 — O'zbek adabiyoti ixtisosligi bo'yicha «70—90-yillar o'zbek lirikasida to'rtlik, sakkizlik va she'riy turkum tabiati» mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Fil.46.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 10-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: Toshkent shahri, Shahrisabz torko'chasi, 5-uy. Tel/faks: (71) 233-36-50, 233-71-44; e-mail: uztafi@akademy.uz

Qat'iyat maqsadga eltadi

Shijoat va izlanuvchanlik bilan ishga kirishgan yosh mutaxassis o'z sohasini chuqur o'rganishga intiladi. Uning xatti-harakati, egallayotgan ilmi, erishgan muvaffaqiyati yon-atrofdagilar, ayniqsa, u ta'lim berayotgan o'quvchilar uchun ibrat bo'la boshlaydi. Ravshan Abdullayev ana shunday pedagoglardan. U o'tgan yili Qo'qon davlat pedagogika instituti tarix fakultetining oxirgi bosqichida tahsil olish bilan birga Bag'dod tumanidagi 8-maktabda dars bera boshladi. Uning darsi qo'shimcha metodikalar bilan yanada jonli va mazmunli muloqotga aylandi.

— O'quv yili davomida “Eng yaxshi tarixiy rasm ijodkori”, “Xarita bilimdonlari”, “Eng bilimdon tarix fani o'quvchisi” kabi tanlovlar uyushtirib, bolalarning fanga ishtiyoqini oshirishga, bilimni mustahkamlab, rag'batlantirishga harakat qildim, — deydi Ravshan Abdullayev. — Tanlov davomida o'quvchilarning iqtidori yuzaga chiqayotganini ko'rib zavqlandim ham. Xarita va rasmlardan ko'proq foydalanish kerakligini angladim, mavzularni imkon qadar hayotiy misollar bilan bog'lab o'tish yaxshi natija beradi. O'quv yili boshida o'quvchilarga shu fan uchun alohida rasm daftar tutishni, mashg'ulotlarni o'tish davomida mavzuga doir nomsiz rasm chizishni

tayinlagandim. Chunki bu usul ma'lumotning o'quvchi xotirasida uzoq saqlanishiga yordam beradi. “Dunyo bo'ylab sayohat” metodidan esa xarita bilan ishlash hamda takrorlash darslarida foydalandim. Bunda dunyo siyosiy xaritasida turli davlatlarda ro'y bergan voqealarni aks ettiruvchi rasmlar yoki yillarni yozib, tartibsiz joylab, o'quvchilardan har bir rasm yoki yillarni mos davlat yoniga joylab chiqish so'raladi. Qolaversa, tarix darslarida ham yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarni guruhlariga bo'lib ishlash usulidan foydalanaman. Multimedia vositalari yordamida mavzuga oid videoroliklar bolalarni darsga yanada qiziqtiradi.

Yosh pedagogning aytishicha, sinfonalar yetishmasligi bois bitta xonada barcha fanlardan dars o'tilishi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Aytaylik, 5-“A” sinf o'quvchilariga matematika faniga moslashtirilgan xonada ona tilidan ham, tarixdan ham dars o'tiladi. Bu jarayon o'quvchi va o'qituvchiga ayrim noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Agar o'quvchilar ijtimoiy fanni xarita, globus va tarixiy voqealarni aks etgan suratlar ilingan xonada o'rgansa, samara yuqori bo'ladi. Ko'rgazmali vositalarni turli xonalarga ko'chirib yurish esa o'qituvchining vaqtini oladi.

— Qisqa vaqt davomida o'quvchilar tarix fanini o'zlashtirishda qanday qiyinchilikka duch kelishini aniqladim. Bu ayrim darsliklardagi chalkashlik, murakkablik, statistikaning ko'pligi bilan bog'liq. O'g'il-qizlarning kam mutolaa qilishi ham fanga qiziqishi susayishiga yoki o'zlashtirishda qiynalishiga sabab bo'ladi. Buning uchun ko'proq tarixiy shaxslar haqidagi asarlarni o'qishni, shuningdek, buyuk siymolar haqida ishlangan filmlar tomosha qilishni tavsiya etaman, — deydi suhbatdoshimiz.

Yosh o'qituvchi shu kungacha ko'plab ilmiy anjumanlarda ishtirok etdi. Jumladan, o'tgan yili Guliston davlat universiteti, Panjkent davlat pedagogika instituti (Tojikiston), Samarqand davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Qarshi davlat universiteti, Navoiy davlat pedagogika institutida o'tgan anjumanlarning tezislar to'plamida maqolalari chop etildi. O'tgan yili Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchilari bilan hamkorlikda “O'zbekiston tarixi” (XVII asr boshlari — XIX asr 60-yillari) nomli o'quv qo'llanmasi chop etildi. Ayni vaqtda institut jamoasi bilan Xalqaro hunarmandlik festivaliga bag'ishlangan “Qo'qon xonligi tarixi” nomli o'quv-uslubiy qo'llanmani chop ettirmoqda.

21-22-iyun kunlari Ravshan Abdullayev Xo'jand davlat universitetida o'tkazilgan “O'zbekiston va Tojikistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlari: tarix va zamonaviylik” mavzusidagi xalqaro konferensiya-da tarixiy mavzudagi maqolalari bilan yurtimiz delegatsiyasi tarkibida ishtirok etdi.

Shoir BOYMURODOVA,
“Marifat” muxbiri

Ibratli muzeyshunos

Samarqandlik ziyolilardan biri, taniqli tarixchi va muzeyshunos olim No'mon Mahmudov 70 yoshga kirdi. U uzoq yillar shahar, viloyat miqyosidagi tashkilotlarda hamda 16 yil davomida Samarqand davlat birlashgan tarixiy-me'morchilik va badiiy muzey-qo'riqxonasida bosh direktor vazifasida ishladi.

No'mon Mahmudov Samarqand shahrining Mullo Qalander mahallasida ulg'aydi, shahardagi 22-maktabda tahsil oldi. Samarqand davlat universitetining tarix fakultetiga o'qishga kirib, uni imtiyozli diplom bilan tugatdi. Ish faoliyatini Samarqand davlat pedagogika institutida o'qituvchilik vazifasidan boshladi. Keyinchalik Yoshlar tarixi muzeyida rahbar, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Samarqand shahar kengashining tashkiliy bo'limi mudiri, tuman hokimining ijtimoiy ishlar bo'yicha o'rinbosari vazifasida ishladi.

1993-yildan buyon Samarqand davlat birlashgan tarixiy-me'morchilik va badiiy muzey-qo'riqxonasida bosh direktor vazifasida ishlayotgan U muzey-qo'riqxonaga ishga kelganida tashkilot oldida katta muammolarni hal etish, moliyaviy ahvolni yaxshilash muammosi turardi. Mana shunday murakkab vaziyatda No'mon Mahmudov bor kuchi va tashkilotchilik qobiliyatini ishga soldi.

1994-yilning respublikamizda “Mirzo Ulug'bek yili” deb e'lon qilingani muzey-qo'riqxonalar rahbariyati zimmasiga ko'plab vazifalar yukladi. Yubiley dasturiga muvofiq Mirzo Ulug'bek muzeyi binosini ta'mirlash, ma-

jmuva hududini obodonlashtirish ishlari muvaffaqiyatli bajarildi. No'mon Mahmudov rahbarligida Samarqandda 1995-yili taniqli tojik yozuvchisi Foteh Niyoziy uy-muзейi, 1996-yili Alisher Navoiy muzeyi, 1998-yili Saidrizo Alizoda uy-muзейi tashkil etildi. 1998-yili Sadriddin Ayniy uy-muзейi qayta ta'mirlanib, yangi ekspozitsiyasi yaratildi. Bundan tashqari, viloyatdagi muzey-qo'riqxonalar tizimidagi muzeylar ekspozitsiyalari qaytadan davrga moslashtirib yaratildi.

No'mon Mahmudov rahbarligida muzey-qo'riqxonalar tizimidagi tarixiy obidalarni ta'mirlash va ulardan foydalanish ishlari ham yo'lga qo'yildi. Ayniqsa, 1996-yili Amir Temur maqbarasida, Shohizinda majmuasida, Bibixonim masjidi va maqbarasida, Hazrati Xizir masjidi va Xoja Doniyor maqbarasida keng ko'lamli ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilib, ziyoratchilarga qulayliklar yaratildi.

Har bir obyekt haqida ma'lumot beruvchi buklet, yo'lko'rsatkich, katalog, taqvimlar nashr etish ishlari yo'lga qo'yildi. No'mon Mahmudov hammuallifligida “Samarqand muzeyi durdonalari” albom-katalogi, 6 jildlik “Samarqand davlat birlashgan tarixiy-me'moriy va badiiy muzey-qo'riqxonasi jam-

lanmasi” katalogi nashr etildi.

Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi 2000—2009-yillar davomida AQSh, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Rossiya, Qozog'iston davlatlari elchixonalari va O'zbekistonda faoliyat olib boradigan xalqaro tashkilotlar bilan qator loyihalarni amalga oshirdi. Ayniqsa, UNESCOning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda muzey-qo'riqxonalar fondidagi shisha fotonegativlarda saqlanayotgan 16 mingdan ziyod tarixiy fotosuratlarining raqamlashtirilishi madaniy merosimizni saqlash sohasidagi yirik ishlardan biri edi. Ushbu fotonegativlar asosida “Raqamlangan tarix. Tarixiy xotira” nomli fotoko'rgazma tashkil etildi. No'mon Mahmudovning tashabbusi va sa'y-harakatlari bilan O'zbek muzeylari ko'plab xalqaro muzeylar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalar olib bordi. Bu hamkorlik natijasida Germaniyaning Frayburg shahridagi Adelsxauser etnografiya muzeyi bilan hamkorlikda turli ko'rgazmalar tashkil etildi. 2001-yili germaniyalik folklorshunos olim Gabriele Keller tashabbusi bilan yaratilgan “O'zbekistonda ayollar madaniyati” nomli fotoko'rgazma Samarqand shahri muzeylari va Germaniyadagi Olmon-O'zbek ilmiy jamiyati bilan birgalikda O'zbekiston, Germaniya, Shveysariya, Belgiya muzeylarida bir necha bor namoyish etildi.

Xurram RAHIMOV,
Germaniyadagi Olmon-O'zbek
ilmiy jamiyati raisi, professor

Fanimiz fidoyilari

Donolar aytganidek, umr uzun yo'qisqaligi bilan emas, aksincha mazmunli ekani bilan ahamiyatli. Zero, faqat yaxshi amallarimiz va savobli ishlarimizgina umr yo'limizni ziynatlaydi.

Hurmatga sazovor

Umr yo'lini ota-ona va ustozlar duosi bilan yoritgan, el-yurt xizmatida bo'lgan, do'st-u yorlar orasida hurmat ortingan Ahmadjon Alixonovni farg'onalik ko'plab pedagoglar yaxshi biladi. Ustoz 30 yildan beri Rishton tumanidagi 22-maktabda fizika fanidan saboq berib kelmoqda. Bundan avval maktabda fizika fanini o'qitilishi qoniqsiz ahvolda bo'lib, bu fandan o'quvchilarning bilimlar bellashuvi va fan olimpiadasi ishtiroki natijasi eng past ko'rsatkichda edi.

Ahmadjon Alixonov 29 yil avval maktabimizga fizika fani o'qituvchisi bo'lib ishga keldi va o'quvchilarning o'zlashtirishi ham ijobiy tomonga o'zgardi. Chunki ustoz bolalarni fanga qiziqitira oldi. Bunga ustoz, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi Jakbarali Isoqovdan olgan bilim va o'gitlari qo'l keldi. Maktabda “Yosh fiziklar” to'garagini tashkil qilib, unga ko'plab o'quvchilarni jalb etildi. To'garak mashg'ulotlarini muntazam hayotiy misollar, amaliy mashg'ulotlar bilan qiziqarli olib bordi. Maktabda fizika fani va laboratoriya xonalari zamonaviy ko'rgazmali qurollar bilan jihozlandi. Natijada o'quvchilarning fan olimpiadalaridagi natijasi yuqoriladi. “Yosh fiziklar” to'garagi ham samara bera boshladi. Ushbu to'garak a'zolaridan Obidjon Fozilov va Sarvarbek Matvaliyev ham ustoz izidan borib, tumanimizdagi maktablarda fizika fani o'qituvchisi bo'lib ishlaymoqda.

Ahmadjon domla qariyb 10 yil davomida maktabda o'qituvchilarga sharoit yaratish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratdi. Maktabda tadbirlarni namunal o'tkazish, boshlang'ich kasaba uyushmasi xonasini tashkil etish, pedagog ayollarga dam olish uchun sharoit yaratish, sport musobaqalari tashkil etish domlarning asosiy ish faoliyatiga aylandi. Maktab jamoasi esa bundan, albatta, minnatdor.

Iqboljon ALIMATOV,
Rishton tumanidagi
22-maktab o'qituvchisi

Farzandlarimizning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish masalasi biz — ota-onalarni o'yga toldiradi.

Imkoniyati cheklanganlar o'rtasida musobaqa

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar o'quvchilari o'rtasida shaxmat, yengil atletika va quvnoq estafetalar bo'yicha ikki bosqichli musobaqa o'tkazildi.

Ikki bosqich — maktab-internatlar boshqichi va yakuniy bosqichda bo'lib o'tgan mazkur musobaqalar Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbusning ikkinchi yo'nalishi, ya'ni yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoit-

lar yaratish yo'nalishi doirasida tashkil etildi. Musobaqadan ko'zlangan asosiy maqsad — imkoniyati cheklangan bolalarni reabilitatsiya qilish, mahorati yosh atletlarni terma jamoalarga jalb etish, jahon va Osiyo chempionatida ishtirok etuvchi parolimpiya terma jamoalariga zaxira sportchilarni tayyorlashdan iborat. Musobaqaning birinchi bosqichi maktab-internatlarida imkoniyatlari cheklangan bolalar o'rtasida 13—21-iyun kunlari o'tkazilib, unda 1218 nafar o'quvchi ishtirok etdi.

— Bu tadbir Xalq ta'limi vazirligi



B.RIZQULOV/o'qib olingan sur'atlar



gi tizimida birinchi marta o'tkazilayapti. O'quvchilar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, imkoniyati cheklangan bolalar o'zlarini sog'lom tengdoshlaridek his qilishlari uchun imkoniyat yaratish musobaqaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, ushbu sport tadbirlarida bolajonlar katta ishtiyok bilan qatnashdi. Endi bu kabi muso-

baqalarni an'anaviy tarzda o'tkazishni rejalashtiryapmiz, — deydi Xalq ta'limi vazirligi yetakchi mutaxassisi Yo'ldoshxo'ja Akbarov.

Musobaqaning yakuniy bosqichi bugun poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 102-zaif eshituvchi o'quvchilarga mo'ljallangan maxsus maktab-internatda bo'lib o'tadi.

Bahodir HASANOV

Tashabbusga barcha daxldor

Besh tashabbus bo'yicha Toshkent kimyo-texnologiya institutida ham muayyan ishlar amalga oshirildi. Talaba-yoshlar uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, ma'naviy ishlar samaradorligiga erishishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ijrosi kafedralar kesimida muntazam tahlil qilib borilmoqda.

Jumladan, menejment va kasb ta'limi fakulteti "Tillar" kafedrasida 5 ta muhim tashabbus doirasida qator amaliy ishlar olib borildi. Birinchi tashabbus doirasida san'at va madaniyat klublaridagi "Eng yaxshi sahna asari", "Quvnoqlar va zukkolar", "Zukko kitobxon", "Eng yaxshi badiiy asar targ'ibotchisi" tanlovlari o'tkazildi.

Ikkinchi tashabbus bo'yicha institutning talabalar turarjoyida yoshlarning futbol, mini-futbol, basketbol, gandal, voleybol, stol tennis, shaxmat, shashka, gimnastika va oilaviy sport bilan shug'ullanishi, turli musobaqalar o'tkazish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Masalan, yaqinda institutda "Sport — mustahkam oilamiz poydevori" shiori ostida oilaviy sport musobaqasi bo'lib o'tdi.

Yoshlarning ma'naviy va g'oyaviy immunitetini yanada oshirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli va samarali tashkil etish ham oldimizdagi muhim masalalardan biri. Ayniqsa, bu borada pedagoglar talabalarga kompyuter texnologiyalari va internetdan ta'lim maqsadlari yo'lida to'g'ri foydalanishni o'rgatishi kerak. "Tillar" kafedrasida bu borada quyidagi vazifalar belgilab berilgan: akademik soatlarda OAV va internet ma'lumotlari bo'yicha respublikamiz ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida ro'y berayotgan eng so'nggi yangilik va

o'zgarishlarni muntazam tahlil qilib borish; mustaqil ta'limda internetdan kitobxonlikka yo'naltiruvchi maqsadni yo'lga qo'yish; talabalarga axborot xavfsizligi hamda internetdan maqsadli foydalanish bo'yicha ma'lumotlar berish; eng yaxshi ijodkor talabalarining faoliyatini institut saytida muntazam yoritish.

To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan. Bu borada institut professor-o'qituvchilari tomonidan talabalar ishtirokida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Respublikamizdagi yirik nashriyotlar tomonidan institut hududida kitob yarmarkalari uyushtirilib, unda taniqli shoir va yozuvchilar ham ishtirok etishdi. Atoqli san'atkor va iste'dodli ijodkorlarni joylardagi madaniy ishlarga ko'makchi sifatida jalb etish yaxshi natija berayotganini inobatga olib, "Zukko kitobxon" tanlovinin baholash uchun O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimlari Zulfiya Mo'minova va Bobur Bobomurod taklif etildi. G'olib talabalar aniqlanib, Yoshlar ittifoqi institut boshlang'ich tashkiloti tomonidan qimmatli sovg'alar bilan taqdirlandi.

G.TAVALDIYEVA,
Toshkent kimyo-texnologiya
instituti "Tillar" kafedrasidir

Yozgi ta'til boshlanishi bilan farzandlarimizning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish masalasi biz — ota-onalarni o'yga toldiradi. Bunday vaqtda maktablar qoshida tashkil etilgan sog'lomlashtirish maydonchalari va to'garaklar ularning joniga ora kiradi.

Besh imkoniyat

Maktablarda tashkil etilgan to'garaklar faoliyatining asosiy maqsadi o'quvchi-yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha besh muhim tashabbusni amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq bo'ldi.

Sergeli tumanidagi 6-IDUM-da ham shunday to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan. "Besh tashabbus — besh imkoniyat" mavzusida o'tkazilgan tadbirda to'garak a'zolari mashg'ulotlarda o'rganganlarini namoyish etishdi. Tadbirda tuman xalq ta'limi bo'limi vakillari, ota-onalar, o'qituvchilar ishtirok etdi.

Informatika, mantiqiy matematika, shaxmat, shashka, futbol, stol tennis, raqs, "Yosh rassom", "Yosh kitobxon" to'garaklari a'zolarining namoyishlari barchada katta taassurot qoldirdi.

— Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbusning uchinchi yo'nalishi, ya'ni aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologi-



2019-06


yalar va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish bo'yicha tashkil etilgan informatika to'garagida bolalarning kompyuter bilan ishlash, internetdan foydalanish borasidagi bilimlari mustahkamlanmoqda, — deydi to'garak rahbari Donoxol Murodova.

Tadbinning badiiy qismida musiqa to'garagi qatnashchilari ishtirokida go'zal raqslar namoyish etildi. Shundan so'ng "Yosh kitobxon" to'garagi a'zolari kitob, mutolaa, kitob o'qishning foydasi haqida chiroqli she'rlar, fikrlarni tomoshabinlarga taqdim etishdi.

"Sog'lom avlod — sog'lom kelajak" shiori ostida shaxmat, shashka, futbol, stol tennis to'garagi a'zolari o'rtasida musobaqa uyushtirildi.

Tadbir yakunida "Yosh rassomlar" to'garagi ishtirokchilarining chizgan rasmlari, plastilindan yasagan qo'l mehnati namunalari ko'rgazmasi tashkil etildi.

Oygul KAJANOVA



Ijodkor bolalar taqdirlandi

Toshkent shahridagi "Botanika bog'i"da "Ijodkor bolalar" festival-tanlovining respublika bosqichi bo'lib o'tdi.

Festivaldan maqsad o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, kasb-hunarga yo'naltirish, qiziqishlaridan kelib chiqib badiiy, texnik, o'lkashunoslik va ekologiya kabi yo'nalishlarga oid ko'nikmalarini rivojlantirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 28-fevraldagi "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida respublika bo'yicha 215 ta "Barkamol avlod" bolalar markazlarining faoliyati tashkil etildi. Bugungi kunda "Barkamol avlod" bolalar markazlarida 5,5 mingdan ortiq to'garak faoliyat ko'rsatmoqda.



Uch bosqichda (tuman(shahar), hududiy, respublika) o'tkazilgan tanlovning quyi bosqichlarida ana shu "Barkamol avlod" markazlari va umumta'lim maktablarining 7,4 mingdan ziyod o'quvchilari 6 yo'nalish (yog'och o'yimakorligi, libos dizayni, avtomodel, robototexnika, ekodizayn va landshaft dizayni) bo'yicha ishtirok etdi.

Respublika bosqichida 14 ta viloyatdan 84 nafar o'quvchi qatnashdi. Tanlov 2 shart bo'yicha o'tkazildi. Dastlab o'quvchilar ikki soat ichida amaliy ishlarini bajargan bo'lsa, ikkinchi shartda o'z ijod namunalari hakamlar hay'ati oldida namoyish etdi.

— Tanlovda qo'lda yasalgan amaliy




ishim bilan qatnashdim. Ishimni hakamlar 1-o'ringa munosib deb topdi, — deydi libos dizayni bo'yicha 1-o'rin sohibasi Nargiza Shavkatova.

Festival so'ngida 6 yo'nalish bo'yicha faxrli o'rinlarni egallagan o'quvchilarga faxriy yorliq va esdalik

sovg'alari topshirildi. Yosh iqtidor egalari ijrosidagi konsert dasturi bilan tadbir yakunlandi.

Jahongir MARDONOV,
O'zJOKU talabasi

B.RIZOQULOV olgan suratlari.



Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-3551. Tiraji 15468.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirish shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqir
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Sardor Mustafoyev.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'zA yakuni — 02.25 Topshirildi — 03.45

1 2 3 4 5 6